

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 372.881.512.133

NORBOYEVA BAXTIGULNING

**ADABIY TIL ME‘YORLARI VA UNI O‘QITISHDA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

70230101-Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.f.d. S.Turdimurodov

Termiz-2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 2-apreldagi №54-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasida bajarilgan


Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy web sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:




Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (45 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Imiy rahbar:



f.f.f.d. S.Turdimurodov

Kafedra mudiri:



f.f.f.d. N.Amonturdiyev

Magistratura bo'limi boshlig'i:




p.f.f.d A.Narbayev

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va muhimligi. Istiqlol sharofati bilan ma'naviyatimizning muhim mezonini bo'lgan tilimizga hukumatimiz tomonidan jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir... Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalari, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar"¹. Bugungi zamonimizda ona tilimizni tadqiq qilishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu nafaqat yozuvchilar uchun, balki kitobxon uchun ham bu sohada ma'lum tushunchaga ega bo'lish, imkon darajada sohaga oid leksikalarni mukammal o'rganishni taqozo etadi. Zero, ta'limni, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash davlatimiz olib borayotgan ko'p qirrali siyosatda muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Bizga ma'lumki, so'z badiiy tasvirning asosiy vositaslaridan biri sanaladi. So'zning ishtirokisiz, lisoniy birliklarsiz borliqdagi voqea-hodisalarni aniq tasvirlash mushkul ishdir. Azal-azaldan so'zlar vositasida leksik-semantik guruhlar va turli xil ma'no ko'chish yo'llarini hosil qilingan. Buning natijasida asarning badiiy saviyasi oshgan. O'z badiiy qiymatini saqlagan holda vaqt darg'alari osha avlodlarga yetib kelgan. Hozirgi o'zbek adabiyoti, xususan, nasriy yo'nalish jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, chunki adabiyotning quroli tabiiyki, so'zdir. So'z orqali go'zal tasvir yaratildimi, demak, bunday tilning lug'at boyligi kengdir. Til biror bir millat uchun xos bo'ladi, shu millatning tarixan qadimiyligi bilan ham baholanadi. O'zbek tili ana shunday boy millatning tilidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir

¹ Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi pf-5850-sonli prezident farmoni, 2020-yil 21-oktabr.to'g'risida"gi pf-5850-sonli prezident farmoni, 2020-yil 21-oktabr.

kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrlil qo'shiqlariga quloq tutsin"[Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi pf-5850-sonli prezident farmoni, 2020-yil 21-oktabr.]² deb aytgan so'zlari ham bejizga emas, albatta. Ko'p asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos ravishda o'rganish barchamiz uchun muhimdir.

"Til,-deb yozadi G.Vinokur,-faqat amaliy qo'llanishdagina tildir". Ona tilini mukammal egallash uchun tilning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor bo'lish kerak. Chunonchi, gap sostavidagi so'zning samantikasi- ma'no tomoni, qo'shimcha emotsional – ekspressiv ottenkasi va stilistik belgilari, fikrni so'z vositasi bilan logik jihatdan to'g'ri ifoda qilish usullari va shunga o'xshash masalalarini puxta bilish zarur.

"Ona tilini o'rganish,- deydi, M.I.Kalinin, - nihoyatda ulug' bir ish. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g'oyat otashin hislar, agar ular so'z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun na'munaligicha qolaveradi. Til fikrni ifodalash qurolidir. Binobarin, agar fikr nutq vositasi bilan bayon qilingan bo'lsa, agar u til vositasi bilan ro'yobga chiqqan bo'lsa, agar u, filosoflar tili bilan aytganda,- boshqalarga bevosita borib yetsa, reallashsagina fikr bo'la oladi".

Mukammal yetkazishi uchun adabiy me'yorlarini mukammal o'rganmog'i lozim. O'qituvchi adabiy til me'yorlarini o'qitishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirishi bu o'quvchilarning yutug'idir. Chunki bola ustozidan ta'lim oladi,

² «Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur» - Prezident nutqi
https://my.iiu.uz/dashboard/uploads/files/i4ucFmwV_hVui-qLDImZJImNlrfGcfGU.pdf

hattoki unga taqlid ham qiladi. O'qituvchi kelajak avlod tarbiyachisi sifatida bola dunyoqarashini shakllantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchi har qanday vaziyatda va har qanday sharoitda ham adabiy til me'yorlarini mukammal darajada o'quvchiga o'rgatishi talab etiladi.

Tadqiqot ishining obyekt. Tilshunosligimizda hozirgi o'zbek adabiy tili til sathidagi barcha me'yoriy ko'rinishlari hisoblanadi.

Tadqiqot ishining predmeti. Tadqiqot predmeti esa adabiy tilni o'qitishda zamonaviy metodlarni yaratish tamoyillari va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqot ishining maqsadi. Zamonaviy metodlar yordamida adabiy tilni o'qitish metodikasini nazariy asoslash bilan bir qatorda, yangi metodlar asosini ishlab chiqish va amaliy tekshirish. Adabiy til me'yorlari tilshunoslikka oid elektron darsliklardan foydalanish orqali yangi metodlar yordamida o'quv materialari o'zlashtiriladi. Bunda o'rganilgan tarkib mustahkamlanadi va bilim sifatini nazorat qilish ta'minlanadi.

Tadqiqot ishining vazifalari:

- adabiy til me'yorlarini o'qitishdagi o'ziga xos asosiy xususiyatlarni o'rganish va tilning me'yorlashuviga ta'sir qiluvchi omillar aniqlash;
- til ta'limida kompetensiyaviy yondashuvlar asosida adabiy til me'yorlariga oid o'quv materiallarini tahlil qilish orqali metodologik yondashuvlarni takomillashtirish;
- adabiy til va boshqa shevalardagi til hodisalari qiyosiy o'rganish, ulardagi o'xshash hamda farqli jihatlarga oydinlik kiritish.
- ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalardan foydalanish orqali ularning adabiy til me'yorlarini puxta o'zlashtirishiga doir metodlar yaratish;
- o'quvchilarning nutqiy savodxonligini yaxshilash va dunyoqarashini o'stirishga doir zamonaviy ishlanmalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga adabiy til me'yorlarini zamonaviy metodlar yordamida o'qitishni tadqiq qilinishi natijasida:

- Adabiy til me'yorlarini o'qitishdagi o'ziga xos asosiy xususiyatlari yoritildi va tilning me'yorlashuviga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi;

- Adabiy til ta'limida kompetensiyaviy yondashuvlar orqali adabiy tilga oid o'quv materiallari tahlil qilindi va metodologik yondashuvlar yaratildi;

- Adabiy til va shevalardagi til hodisalari qiyoslab o'rganildi hamda ulardagi o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlandi.

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi: topshiriqli va ijodiy ishlardan, lug'atlardan, tasviriy san'at asarlari hamda videofilmlardan foydalanish orqali o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga rioya qilishga doir metodlar yaratildi;

- o'zbek tili so'z boyligini o'zida mujassamlagan lingvistik lug'atlardan dars mashg'ulotlarida, shuningdek, uy vazifalarini bajarishda o'quvchining nutqiy savodxonligi, ijodiy fikrlashi va dunyoqarashini o'stirishga doir zamonaviy ishlanmalar ishlab chiqildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi (adabiyotlar sharhi).

Tilshunosligimizda yaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Jumladan, adabiy til me'yorlarining u yoki bu muammosini tadqiq etishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. O'nlab monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalar, o'quv materiallari yuzaga keldi. Ma'lumki, o'zbek adabiy tili va me'yorlarining ayrim muammolarini ishlash protsessi ancha ilgari boshlangan bo'lib, bu sohada A.Borovkov, E.Polivanov, K.Yudahin, G'Yunusov, V.Reshetov, A.G'ulomov, G'Abdurahmonov, A.Rustamov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Hojiyev, I.Qo'chqortoyev, H.Ne'matov, F.Kamol, A.Jamoliddinov, E.Begmatov va boshqa bir qancha olimlarimiz katta xizmat qilishgan. Bu ishlarning har qaysisi adabiy tilni tilshunoslikning muayyan aspekti bo'yicha tadqiq qilishga

bag'ishlangan. Masalan, bu ishlarning bir qismi adabiy tilni Grammatik jihatdan xarakterlagan bo'lsa, yana bir qismi adabiy tilni tarixiy bosqichini o'rgangan yoki stilistikasini (Grammatik uslubiyat, amaliy uslubiyat, yoki leksik-grammatik uslubiyat) o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar tasnifi: mazkur dissertatsiya ishida eksperiment, qiyosiy, sinxron, kuzatuv, tasviriy va tavsifiy kabi zamonaviy metodlardan foydalaniladi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati: Tadqiqotdagi materiallardan o'rta maktab, akademik litsey va boshqa o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishlari, onatili, o'zbek tili darslarini tashkil etishda, adabiy til me'yorlarini tadbiq etishda keng foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi: Dissertatsiya kirish, uch bob, o'n fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, 75 sahifadan iborat.

I BOB. ADABIY TIL ME'YORLARI VA UNI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1-§. Adabiy til normasining umumiy va xususiy ko'rishlari

Tilshunoslik fani o'z shakllanish va rivojlanish tarixiga ega bo'lgani kabi adabiy til me'yorlari ham ma'lum tadrijiy bosqichlarga ega. Til me'yorlarini o'rganishga oid masalalar paydo bo'lgandan buyon tilshunoslik tarixida ko'plab amaliy va nazariy ishlar amalga oshirildi. Ammo adabiy til me'yorlari bo'yicha bir qator muammolar yetarli asosda hal qilinmagan. Xususan tilshunos olim E.Begmatov buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltiradi:

-Lisoniy norma tushunchasi til, nutq, til tizimi, uzus, adabiy til, ijtimoiy va professional lahjalar va shu kabi juda murakkab, hozirgacha tilshunoslikda o'z yechimini to'la topmagan tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir³;

- Bu muammoni jiddiy hal qilishdagi asosiy masalalar:1) "norma" deb qanday til hodisasini aytsa bo'ladi? (ya'ni normaning umumnazariy masalalari va yaxlit ta'rifi masalasi); 2) til normasidagi o'zgarishlarning asosiy sabablari nimada? (normaning dinamikligi, immanentligi, ijtimoiy hodisa ekanligi masalasi); 3) bir makonni anglatadigan ikki til birligidan qaysi biri adabiy norma doirasiga kiradi deb hisoblash mumkin? (normada variantdorlik, uslubiy tarmoqlanganlik va shu kabi masalalar); 4) umuman lisoniy normadagi o'zgaruvchanlik va bu jarayonda tilde yoki nutqqa mos keluvchi to'g'rilik va xatolik o'rtasidagi chegarani qanday aniqlash mumkin? (ya'ni normadan chetga chiqishlar)⁴.

Lisoniy me'yor masalalarini o'rganishda jarayonida bu muammoni o'rganishda asosiy beshta asosiy markazlar borligini ko'rsatadi. Bular:

- 1) Praga tilshunoslik maktabi;
- 2) E.Koseruining nazariy qarashlari;
- 3) ingliz, nemis, amerika tilshunoslarining nazariy qarashlari;
- 4) rus tilshunoslari nazariy qarashlari;

³ Kolesov V.V., L.V.Sch erba.(1987).[doc].zi p/Колесников.Л В Щерба.doc

[http://publ.lib.ru/ARCHIVES/L/"Lyudi_nauki"/Kolesov_V.V._L.V.Scherba.\(1987\).%5Bdoc%5D.zip](http://publ.lib.ru/ARCHIVES/L/)

⁴ Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi // Nutq madaniyatiga oid masalalar to'plami. – Toshkent: Fan, 1973.

5) sharq tilshunosligidagi nazariy qarashlar.

B.S.Shvartskoviskiyning quyidagi fikrlariga e'tiborimizni qaratamiz: "Me'yor masalasi adabiy tilni normallashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bayon qilish umuman til normasi, xususan, adabiy til normasining mohiyati haqidagi nazariy qarashlar rivojlanishining sharhisiz bu muammoni to'liq yoritib bo'lmaydi".

Gap shundaki, lingvistik adabiyotda norma tushunchasining mohiyatiga, bu til hodisasining har xil aspektlariga turlicha yondashilgan va juda ko'p tariflar berilgan. Ana shu har xilliklarda nazariy izlanishlarning bir necha yo'nalishlarini ko'rish mumkin⁵.

Uzoq vaqtlar davomida til normasi va adabiy tilni me'yorlashtirish muammolari tilshunoslar e'tiboridan chetda qolib keldi. Bu masalani hal etishda Praga tilshunoslik maktabining xizmatlari ahamiyatlidir. Ular til me'yori obyektiv hodisa ekanligini, uning til tizimi ichidagi mohiyatni ko'rsatishga harakat qildilar. Bu esa keyinchalik mu masala ko'plab tilshunoslar o'rganadigan obyektga aylanishiga sabab bo'ldi.

Praga tilshunoslik maktabi namoyondalari til normasini, adabiy tilning vazifalarini adabiy til kodifikatsiyasining amaliy masalalari bilan birga uzviy holda tahlil qildilar. 1930-yillarning boshlarida Praga tilshunoslik maktabi vakillarining ishlarida til me'yorlari va adabiy tilni me'yorlash, uning kodifikatsiyasi masalalari katta nazariy masala sifatida tahlil qilindi. Ular til me'yorlarining funksional, lingvosotsiologik va konkretlisoniy-tarixiy hodisa sifatida o'rgandilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Praga tilshunoslik maktabi a'zolari til me'yorlarini u yoki bu tilda so'zlovchi umumjamo'a tomonidan muntazam ravishda fydalaniladigan lisoniy struktura vositalarining yig'indisi deb tushundilar. Til normasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishda bu maktab a'zolaridan B.Gavranek,

⁵ Шварцкопф Б.С. Очерк развития теоретических взглядов на норму в советском языкознании. -// Актуальные проблемы культуры речи. М.: Наука. 1970. с. 369

V.Matezius, A. Vedyaychka, V.Barnet, Y.Vaxek va boshqalarning xizmatlari diqqatga molikdir.

Ma'lumki, XX asr boshlarida tilshunoslikda strukturalizm oqimi paydo bo'lib, bu oqim norma tushunchasiga jiddiy yondashdilar va ilmiy-nazariy tahlil qilishga harakat qildilar. Jumladan, B.Gavranek ham tilga, xususan, norma masalasiga struktural nuqtayi nazardan yondashdi. U o'zining ilmiy kuzatishlarida normani sistema sifatida xarakterlab, norma tushunchasi – til mavjudligi doirasiga bevosita aloqadorligini va til doirasida majburiy qo'llanishini ta'kidlaydi.

U adabiy til mohiyatidan kelib chiqib, uning yangi tushunchalarini tavsiya qildi hamda til normasi va adabiy til kodifikaniyasi nazariyasini asoslashga urindi, adabiy tilning uslubini, qabatlanganlik nazariyasini vazifaviy (funksional) nuqtayi nazardan yondashgan holda ishlab chiqdi va chex nutqi madaniyatining rivojlanishiga hissa qo'shdi.

B.Gavranek til normasining nazariy va amaliy muammolarini hal qilish asnosida adabiy til bilan xalq tilini qiyoslab o'rgandi va me'yorning ko'p jihatdan uzus asosiy omil emasligini aytdi. Chunki adabiy norma o'z moddiyatiga ko'ra xalq tili, uning tuzilishi va xarakteridan farq qiladi. Shuning uchun ham uzus adabiy til normasining yuzaga kelishida ma'lum rol o'ynasa-da, asosiy, hal qiluvchi omil emas ekanligi haqidagi xulosaga keldi.

Chex tilshunoslik maktabining boshqa bir vakili yuqorida qayd qilingan fikrni boshqacharoq usulda ifoda etib shunday yozadi: "Norma kategoriyasi hech qachon faqat adabiy til bilan chegaralanmaydi. Norma muammosi adabiy tildan kengroq va murakkabroq hodisadir". B.Gavranek esa til normasi haqida fikr yuritar ekan, lisoniy normadagi umum uchun majburiylik omilini asosiy deb hisoblaydi.

B.Gavranek, "til normasi, bu ma'lum bir lisoniy guruh a'zolari uchun shart bo'lgan, majburiy qoidadir. Norma til tizimida o'z aksini topadi va nutqda muntazam ravishda ishlatiladi, shu holda uning eng muhim vazifasi - kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi vazifasini bajara oladi" - deb yozadi.

B.Gavranek ushbu fikrni davom ettirar ekan, har qanday - til guruhi, u xoh hududiy guruh, xoh ijtimoiy guruh bo'lsin, o'zining til normasiga ega. Norma tushunchasi nafaqat adabiy tilga, balki lisoniy norma ma'lum qoidalar majmuasi sifatida tilning hamma ko'rinishlariga ham xos ekanligini aytadi. Har qanday milliy tilning adabiy normasi o'z shakllanish va rivojlanish tarixiga ega bu jihatdan u dialekt va og'zaki nutq normalari tarixidan farq qiladi. Adabiy norma va og'zaki nutqning farqlari haqida fikrni yanada kengaytirib, B.Gavranek quyidagi tezisni olg'a suradi: bir tomondan adabiy norma "og'zaki nutqdan ajralib turishga harakat qiladi (chunki og'zaki tilda shevalar ham mavjud). Ikkinchi tomondan esa, adabiy tilning eng muhim xossasi - hamma tushunadigan, soddalik, jo'nlik xususiyatlari uning og'zaki til bilan yaqinlashishiga turtki bo'ladi (ya'ni og'zaki nutq normasi adabiy til normasiga yaqinlashuvi ma'nosida). Bu qarama-qarshilik adabiy tilning ham, og'zaki tilning ham muntazam rivojlanish, taraqqiyot manbaidir". B.Gavranekning til normasi nazaryasi boshqa tilshunoslar nazariyalariga nisbatan mukammalligi shu bilan izohlanadiki, u til normasiga xos bo'lgan quyidagi eng zarur xususiyatlarini anglab yetadi va e'tirof etadi:

- norma tushunchasi keng hodisa bo'lib, u nafaqat adabiy tilga, balki hududiy dialektlarga ham xosdir;
 - adabiy norma norma rivojlanishining eng yuqori bosqichidir;
 - adabiy "norma"ning rivojlanishi milliy tilning har uchala komponentlari (adabiy til, og'zaki til, dialektlar)ning bir- biriga bog'liqligi bilan, aloqadorligi bilan xarakterlanadi;
 - adabiy normaning o'zaro farq qiladigan ichki belgilari ham til sathlarida aniq ifodalangan funksional-stilistik qatlamlarning mavjudligida ko'rinadi;
- norma uchun barqarorlik va ayni paytda o'zgaruvchanlik va rivojlanuvchanlik xarakterlidir. Ammo B.Gavranek nazariyasining bir necha kamchiliklari ham bor.

U quyidagilardan iborat deb ko'rsatadi **E.Begmatov**⁶:

⁶ Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi. Nutq madaniyatiga oid masalalar to'plami. – Toshkent: Fan, 1973.

- B.Gavranekning tan olishicha, u normani faqat tilning o‘ziga xos bo‘lgan lisoniy hodisa deb tushunadi. Til nuqtayi nazaridan emas, balki normaga jamiyatning unga aloqasi nuqtayi nazaridan tekshiradi (masalan, milliy tilning adabiy normasi shakllanish davrida jamiyatning normaga ongli rioya qilishi, bekam-u ko‘st amal qilish talabining o‘sishi kabi tezislarni ilgari suradi);
- Uning fikricha, ijtimoiy dialektlar (jargolar) o‘zlarining maxsus formalariga ega emas, chunki ular umumxalq tilidan faqat jargonga xos lug‘aviy xususiyatlari bilan farq qiladi;
- B.Gavranek lisoniy normani tashkil qiladigan belgilarning xarakteri, o‘ziga xos belgilari haqida hech narsa demaydi. U normani til tizimi va tuzilishi bilan bog‘lamaydi.

Bu masalalar bo‘yicha V.Barnet ham fikr yuritib, adabiy til normasi bilan noadabiy til normalar orasidagi farqlar til sistemasi va norma, kodifikatsiya va uzus orasidagi munosabatlar bilan bog‘liqdir deydi. Tilning noadabiy ko‘rinishlarida norma sistema va uzusning munosabatidagina iborat bo‘ladi, - degan xulosaga keladi.

Praga lingvistik to‘garagi tilshunoslarining norma nazariyasi haqidagi fikrlarini quyidagicha tavsiflash mumkin: uzusdan til normasi darajasiga “ko‘tarilish” bir davr normasidan ikkinchi bir davr normasiga bir necha normalar jarayonini bosib o‘tish orqali sodir bo‘ladi. Bu xildagi ta’rif impilistit ravishda normalashishga sistema-til struturasi uzus bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tilning normativligi va uning ijtimoiy vazifasi o‘rtasida dialektik bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi⁷.

1.2-§. Tilning me‘yorlashuviga ta’sir qiluvchi omillar

Me‘yor- jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan, maqullangan va ularga tushunarli bo‘lgan til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanish holati va

⁷ Дзекиревская Л.Н. К проблеме нормы в языке и стиле. (На материале немец, кого языка) // Вопросы германской и романской филологии. Учен.зап. МГПИИЯ, т.27, -М.: 1963, с. 279 . . .

** - Барнет В. Языковая норма в соцсиальной коммуникатсии.

// Проблемы и нормы в славянских литературных языкая в синхронном я диахронном аспектах. М.: 1976. с.

imkoniyatidir. Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan⁸.

Me'yor tushunchasi arab tilidan olingan bo'lib o'zbek tilining izohli lug'atida me'yor tushunchasini 4 ta ko'rinishi haqida ma'lumot berilgan:

1- ma'nosi o'lchov andoza ma'nosi. Rasmiydashtirilgan, umum tomonidan qabul qilingan, majburiy qonun hukmiga kirgan qoida.

2- ma'nosi biror narsani talabdagi o'lchami.

3- ma'nosi shu me'yorni ko'rsatkich asoslari. Baholash me'yorlari kabi.

4- ma'nosi chek-chegara. *Bu cho'lining sira me'yori yo'q edi.*

Ma'lum til birligining jamoa o'rtasidagi ma'lum shakl va holatda ko'p iste'molda bo'lishi me'yoriy ko'rinishlarning turg'unlik kasb etishiga asos bo'ldi. Tilda yuz, balki ming yillab davom etgan differentsiatsiya - ajralish, tarqalish jarayoni bu me'yorning ma'lum bir til doirasida bir yo'nalishda umumtil-adabiy, ikkinchi bir yo'nalishida esa umumxalq tilining tarkibiy qismi bo'lgan dialekt va shevalar ham mahalliychilik shaklida mustahkamlanib borishiga olib keldi.

Tabiiyki, jamiyat taraqqiyoti bilan bab-baravar til, jumladan o'zbek tili ham rivojlanib, mukammallashib, ilmiy jihatdan o'rganilib borildi. Natijada uning barcha tarmoqlarida me'yoriy tomonlar anchagina barqarorlashdi. Bu yerda ham til me'yorlarining mustahkamlanishida nutq jarayonining katta ahamiyat kasb etganini esdan chiqarmagan holda, uning taraqqiyoti tobora ongli boshqarila borganligini, tilshunoslik ilmining ta'siri sezilarli darajada kengayganligini kuzatish qiyin emas.

Ana shu omillar ta'siri va natijasi o'laroq til qatlamlaridagi mavjud birliklarga belgilab qo'yilgan me'yoriy holatlar tildan foydalanuvchi barcha vakillar uchun majburiy ko'rinishga keltirildi va bu majburiylik tegishli hujjatlarda, lug'atlarda o'z ifodasini topdi. Bugungi kunda amalda bo'lgan hujjatlar va lug'atlar quyidagilar:

⁸ Adabiy til me'yorlari. <https://fayllar.org/mavzu-adabiy-til-meyorlari.html>

- O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari⁹;
- O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari¹⁰;
- O‘zbek tilining imlo lug‘ati¹¹;
- O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati¹²;
- O‘zbek tilining imlo lugati.¹³

Barcha tildan foydalanuvchilar uchun me‘yoriy holatlarning majburiy ekanligi tayin gap. Ammo unga amal qilishimiz qay ahvolda? Tilimizdan foydalanishdagi barcha talablarni bir chetga qo‘yayligu, so‘raylik: foydalanuvchilarning hamma vakillari ham, ayniqsa, yoshlarimiz o‘z ona tillarida savodli yoza oladilarmi, adabiy til me‘yorlariga mos tarzda so‘zlarni talaffuz etadilarmi? Bu savollar har bir vatanparparvar va millatsevar inson qalbidagi og‘riq nuqtalardir.

Shu o‘rinda buyuk Abdulla Avloniyning asrimiz boshlarida aytgan quyidagi so‘zlari beixtiyor esga keladi: “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir¹⁴”.

Darhaqiqat, Avloniyning “o‘qish, o‘qitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur” degan fikri o‘z zamonini uchun ham, bugungi kun uchun ham qimmatlidir.

Prof. E.Begmatovning “Nutq madaniyati problemasining paydo bo‘lishi va asoslanishi” maqolasida e‘tiborli bir fakt keltirilgan. “Sovetskaya Rossiya” gazetasining 1965-yil 31-yanvar sonida yozilishicha, bir vaqtlar rus tilining “g‘amxo‘rlari” rus tilida to‘g‘ri gapirishni yo‘lga qo‘yish maqsadida “filologik milisiyalar”, “rus tili o‘qituvchilaridan tuzilgan ixtiyoriy drujinachilar” tashkil

⁹ O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari . – Toshkent, 1956;

¹⁰ O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari . – Toshkent, 1995

¹¹ O‘zbek tilining imlo lug‘ati . – Toshkent, 1976

¹² O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati . – Toshkent, 1984

¹³ Ozbek tilining imlo lugati. – Toshkent, 1998

¹⁴ (O‘zbek adabiyoti, 11 sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997, 37-bet).

qilishni, shuningdek, noto‘g‘ri qo‘llangan so‘z uchun ma‘muriy usulda jarimalar undirilishini taklif qilishgan¹⁵.

Albatta, bu taklif noodatiy. Ammo qanday yo‘l tutilsa, adabiy til me‘yorlari saqlab qolinadi va ularga amal qilinadi, degan mazmunda bosh qotirish, bu vazifaning yo‘llarini topishga harakat qilish esa e‘tiborga molik. Hozirgi o‘zbek adabiy tili har taraflama ilmiy ishlangan va tartibga solingan tildir. Va uning bugungi kunda quyidagi ishlab chiqilgan me‘yorlar orqali tartibga solinadi:

- 1) Leksik-semantik me‘yor;
- 2) Orfoepik (talaffuz) me‘yor;
- 3) Yozuv (grafik) me‘yori;
- 4) Fonetik me‘yor;
- 5) Aksentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) me‘yori;
- 6) Grammatik me‘yor (morfologik va sintaktik);
- 7) So‘z yasash me‘yori;
- 8) Imloviy me‘yor;
- 9) Punktuatsion me‘yor;
- 10) Uslubiy me‘yor.

O‘zbek tili grammatikasi tilshunoslik sohalari orasida nazariy jihatdan bir muncha yaxshi ishlanganligi, so‘z shakllari, qo‘shimchalar, so‘z birikmalari va gap qurilishi bir qadar mukammal me‘yoriy tavsiyalarga ega bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Bu haqda ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarida tegishli mulohazalar aytilgan¹⁶.

So‘z shakllari, qo‘shimchalar, so‘z birikmalarining yozilishi, gapda so‘zlarning tartiblanishi, moslashuvi grammatik me‘yorga asoslanadi. Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi adabiy tilning asosiy talabidir. Gapda so‘z va qo‘shimchalarning to‘g‘ri bog‘lanishi, ega-kesim mosligi, gap bo‘laklarining

¹⁵ Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo‘lishi va asoslanishi // “Nutq madaniyatiga oid masalalar” to‘plami. – Toshkent, 1973, 156-bet).

¹⁶ Qarang: Qo‘ng‘urov R., Karimov S., Qurbonov T.I. Nutq madaniyati asoslari, 1-qism. – Samarqand: SamDU nashri, 1985, 38-40-betlar; Shomaqsudov A. va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 1983, 75-228-betlar

tartibi grammatika qoidalari asosida shakllanadi. Shuning uchun gap tuzishda, jumla qurishda quyidagilarga amal qilish lozim:

– kelishik qo‘shimchalarining ma’no va vazifalarini farqlash hamda o‘rinli qo‘llash. Masalan, *-ning* qo‘shimchasi ot bilan otni, *-ni* esa ot bilan fe’lni o‘zaro bog‘laydi: *ukamning kitobi, kitobni olmoq* kabi;

– ot va sifat yasovchi qo‘shimchalarni farqlash: – *tuzdon* (ot) *gapdon* (sifat), *kiyimlik* (ot) *yashil* – *kiyimli* (sifat), *tenglama* (ot) – *ko‘chma* (sifat) kabi;

– fe’l nisbatlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llash: *tadbir o‘tkazmoq* – *ko‘chat o‘tqazmoq, kuldir* – *keltir* kabi;

– ega va kesimning shaxs-sonda mosligini ta’minlash: Ular o‘qiydilar. (Ular o‘qiydi tarzida emas); – gapda so‘z tartibiga amal qilish: *Uyga shoshib kirdi. (Kirdi shoshib uyga emas).*

Morfologik me’yor haqida fikr yuritilganda gap aslida qo‘shimchalar qo‘llashning me’yoriy holatlari haqida boradi. Qaysi guruh qo‘shimchalari bo‘lishidan qat’iy nazar, ular o‘rtasida variantdorlikning, sinonimiyaning mavjudligi nutqda bu qo‘shimchalar me’yorlari yoki ularning buzilishlari haqida, ba’zan esa vazifaviy chegaralanishlari xususida mulohaza yuritishga sharoit yaratadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi til sathlari orasida leksik birliklar alohida o‘rin tutadi va ularning o‘ziga xos me’yoriy xususiyatlari mavjud. O‘zbek tilidagi leksik-frazeologik birliklarning ana shu xususiyatlari yuzasidan A.E.Mamatov ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va bu kuzatishlarning natijasi o‘laroq doktorlik dissertasiyasi himoya qilingan hamda “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari” nomli monografiya yuzaga kelgan. “Tilshunos-normalist olimlar”, - deb yozadi u, - leksik normaning maqomini aniqlashda turlicha fikrlar aytganlar. Jumladan, O.S.Axmanova leksik normani “bu muayyan bir tilda so‘z qo‘llash normasidir¹⁷”, - deb ta’rif bersa, K.S. Gorbachevich esa “so‘zni to‘g‘ri tanlash va hammaga ma’lum bo‘lgan va umumxalq tomonidan

¹⁷ Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – M., 1961

qabul qilingan, o‘rinli so‘z ishlatishdir¹⁸”, - deb yozadi. Demak, leksik normalarga rioya qilish so‘zlovchi (yozuvchi) va tinglovchi (o‘quvchi) tomonidan o‘zaro muloqotda bir-birini to‘liq tushunishni taqozo qiladi.

Leksik normani ta‘riflashda esa adabiy tilning quyidagi belgi va mezonlarini nazarda tutmoq lozim:

- 1) uning og‘zaki va yozma shaklda amalga oshirilishini;
- 2) territorial va ijtimoiy qo‘llanish doirasini;
- 3) ma‘lum milliy tilning boshqa shakllari bilan adabiy til o‘rtasidagi munosabatlar masalasini inobatga olish kerak.

Shunday qilib, “leksik norma bu og‘zaki va yozuv tili oppozitsiyasi doirasida leksik vositalarning turlicha amalga oshirilishi o‘rtasidagi munosibliklar, tengliklardir¹⁹”.

Adabiy tilda mavjud bo‘lib, shu tilda gaplashuvchilarga tushunarli bo‘lgan so‘zni qo‘llash nutqning muhim me‘yorlaridan sanaladi. So‘zni to‘g‘ri qo‘llashda quyidagilarni e‘tiborga olish lozim:

- so‘zning nutqda ortiqcha takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uning ma‘nodoshlaridan o‘rinli foydalanish;
- shakldosh va paronim so‘zlarni ma‘nolarini farqlagan holda ishlatish;
- so‘zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan sheva so‘zlari yoki ijtimoiy guruhlarga oid argolarni qo‘llamaslik;
- o‘zlashma so‘zlarni noo‘rin qo‘llashdan cheklanish, ularning milliy tildagi muqobillaridan foydalanish;
- so‘z qo‘llashda ixchamlik, tejamkorlikka erishish.

So‘zni matnning xususiyati, nutqning maqsadiga muvofiq ishlatish, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan so‘z shakllarini qo‘llash, so‘z va qo‘shimchalar hamda gap tuzilishidan nutq uslubining turiga muvofiq foydalanish adabiy tilning

¹⁸ Gorbachyevich K.S. Izmeneniye norm russkogo literaturnogo yazyka.- L., 1971

¹⁹ Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.- Toshkent, 1991, 117-118-betlar

uslubiy me'yorlariga tayanadi. Uslubiy me'yorlarga amal qilishda quyidagilarni unutmaslik lozim:

- soʻzning asl va koʻchma maʼnolarini farqlash;
- soʻzning maʼnodoshlik, shakldoshlik, uyadoshlik, darajalanish imkoniyatlarini bilish va bulardan oʻrinli foydalanish;
- soʻz va iboralarni aniq, tushunarli tarzda qoʻllash;
- nutq uslublarning oʻziga xos xususiyatlarini nazarda tutish;
- til vositalarining badiiy, taʼsirchan imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanish;
- soʻzlarning uslubiy farqlanishini hisobga olish.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy, soʻzlashuv kabi nutq uslublari leksik, morfologik, sintaktik va boshqa belgilari bilan oʻzaro farqlanadi.

Oʻzbek tilshunosligida uslublarni oʻrganish, tilning stilistik resurslarini belgilash boʻyicha ayrim tadqiqotlar olib borildi. Buning natijasi oʻlaroq ilmiy asarlar va maqolalar maydonga keldi. Shular asosida oʻzbek tili stilistikasi mustaqil fan sifatida shakllana bordi.

Xoʻsh, oʻzbek tiliga hali ham shevalarning taʼsiri kuchli boʻlib turgan, rus tilining iskanjasidan toʻlaligicha qutila olmayotgan ayni bir paytda ona tilimizning madaniyligi uchun kim kurashayapti, kim fidoyilik qilayapti? Savollar ana shu tarzda qoʻyilsa, yuqoridagi takliflarda ham jonkuyarlik uchqunlari borligini koʻramiz. Adabiy til haqida, uning meʼyoriy qoidalariga amal qilishi haqida qaygʻurish nafaqat filologlarning, balki millatning har bir vakilining, oʻzbek tilini hurmatlaydigan har bir olijanob insonning vazifasiga aylanadi.

Prof. S.Ibrohimov ham bir vaqtlar mana bu taklifni bekorga oʻrtaga tashlamagan edi: “Adabiy til normalaridagi kamchilik, noaniqlik va chalkashliklarni oʻrganib, muhokama qilib, turliliklarni bartaraf qiladigan “normalash komissiyasi” tashkil etilishi, uning qaror va tavsiyalari qonun kuchiga ega boʻlishi lozim. Shuningdek, nutq madaniyatidan konsultasiyalar beradigan

markaziy va mahalliy konsultasiya byurolari tuzish zarur”²⁰. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil etilgan Atamalar qo‘mitasi ma’lum ma’nodan shunday vazifalarni bajarib kelmoqda.

Ma’lumki, adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Agar tilimizning adabiylik darajasiga ko‘tarilgunga qadar umumxalq, umummilliy ko‘rinishda bo‘lganligini inobatga olsak, adabiy tilimizning og‘zaki shaklini anglash birmuncha osonlashadi. Ammo bu o‘rinda biz nimaga e’tiborimizni qaratishimiz lozim? Nazarimizda, til va nutqning ushbu ko‘rinishlarining farqli va umumiy, afzal va mushkul jihatlariga, paydo bo‘lish davri va imkoniyatlariga. Shunda ham bu jihatlariga adabiy me’yor nuqtayi nazaridan munosabat bildirilishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Shu ma’nodan til va nutqning og‘zaki shakli vaqt nuqtayi nazaridan yozma nutqqa qaraganda ancha ilgari paydo bo‘lganligi, undagi me’yorlashish jarayonining stixiyali tarzda kechganligini ta’kidlash joiz. Buning ustiga o‘zbek tilidagi dialekt va shevalarning ko‘pligi, ularning bir-biridan ba’zan jiddiy farq qilishi tilning og‘zaki me’yori haqida mulohaza bildirishni nihoyatda chigallashtiradi. Shuning uchun ham prof. F.Abdullayev adabiy tilning qonun-qoidalarini, me’yorlarini belgilashda bu xususiyatni hisobga olmaslik kutilgan natijani bermasligini ta’kidlagan edi²¹.

Zero, tilimizning me’yori buzilishidagi asosiy kamchilik xuddi ana shu og‘zaki ko‘rinishda ko‘p sodir bo‘ladi va ularni bartaraf etish ham qiyin kechadi.

Inson muomalasida, o‘zaro fikr almashish jarayonida yozuv degan bir nodir ne’matning paydo bo‘lishi kishilik jamiyati uchun buyuk inqilob bo‘lgani aniq. Bu jarayon juda qadimdan o‘z yozuviga ega bo‘lgan turkiy ayrim xalqlar, jumladan, o‘zbek tili uchun ham tegishlidir. Yuqorida bir necha bor ta’kidlaganimizdek, me’yor adabiy tilning asosini tashkil qilgan ekan, u “milliy adabiy tilni ta’riflashda

²⁰ Ibrohimov S. O‘zbek tilining nutq madaniyatiga oid masalalar // Nutq madaniyatiga oid masalalar to‘plami. – Toshkent, 1973, 38-bet

²¹ Abdullaev F. O‘zbek milliy adabiy tili va uni o‘rganishga oid masalalar // Nutq madaniyatiga oid masalalar to‘plami. – Toshkent, 1973, 43-bet.

(ham) markaziy tushuncha bo‘lib, xuddi ana shu asosiy belgi yangi davrda misli ko‘rilmagan darajada rivojlanadi va adabiy tilning yozma turida yuzaga kelib rivojlanayotgan birlik uning og‘zaki turiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu hodisa adabiy tilning orfoepik normasini ixchamlashtiradi va borgan sari uning adabiy tilning yozma turiga yaqinlashuvida markazlashtiruvchi rol o‘ynaydi”²².

Jamiyat rivojlanishi bilan teng holda til va nutqdagi me’yoriy holatlarni o‘rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan. Bu muammolarni hal qilishda xalqning ma’naviy-marifiy turmushi, maishiy, urf-odatlarini, ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi kabi qator omillar e’tiborga olingan.

Til hodisalarini, uning me’yoriy tomonlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini inobatga olmaslikning hech mumkin emas. Til sathlarini me’yorlashtirish, barcha uchun umumiy bo‘lgan bir qolipga keltirish tilshunoslikning muhim vazifasi sanaladi. Me’yor masalalari shu sohaning o‘rganish obyekti bo‘lib qoladi. Anglashiladiki, til me’yorini belgilash muammolarini qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me’yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o‘rganilishi bejiz emas. Tildan foydalanishdagi an’anaviy me’yorlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Til birliklarining adabiy shaklda me’yorlashuvida badiiy adabiyotning o‘rni ham alohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o‘z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo‘lda ular yangi so‘z va iboralar yaratadilar. Bu tilning boyishi va me’yorlashuviga sabab bo‘ladi.

Tadqiqotchilarning aytishicha rasmiy muomalada tildan foydalanish tilning me’yorlashuvini, adabiy tilning shakllanishini tezlashtirgan²³.

²² Abdullayev F. O‘zbek milliy adabiy tili va uni o‘rganishga oid masalalar // “Nutq madaniyatiga oid masalalar” to‘plami. – Toshkent, 1973, 39-bet.

²³ Adabiy til me’yorlari. <https://fayllar.org/mavzu-adabiy-til-meyorlari.html>

Albatta, til madaniyati milliy va umuminsoniy madaniyatning, qadriyatlarining, ma'naviyatimizning ajralmas qismi sanaladi. Uning darajasi qaysi bir ma'noda iqtisodiy omillarga borib taqalishi mumkin.

Tildagi me'yoriy holatlarni belgilashda, tilning adabiylik darajasini ta'minlashda ilmiy asoslangan imlo va talaffuz qoidalarining mavjud bo'lishi, ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan rasmiylashtirilishi, ma'lum ma'noda til iste'molchilari uchun majburiy bo'lishi, qonuniy hujjat holiga keltirilishining ahamiyati katta. Biroq til iste'molchilarining barchasida ham ana shu qonun-qoidalardan yetarli darajada xabardor bo'lish imkonini beravermaydi. Ular til me'yorlarini, asosan, ko'rish va eshitishorali o'zlashtirishadi va shu asosda gapirib, yozadilar. Bunda tildan foydalanuvchining, ayniqsa, yosh paytidagi, tilni endi o'zlashtira boshlagan chog'laridagi oila qurshovining, atrof muhitning - bog'chaning, maktabning, umuman, bundan keyingi ta'lim va tarbiya manbalarining ahamiyati katta bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pchiligimiz shevachilik illatlaridan qutula olmaymiz, ayrimlarimizning savodxonligimiz o'ziga yarasha bo'ladi. Aslida bu jarayon insonning butun umrida davom etishi mumkin.

Harqalay, hozirgi davrda bizga tilimizning me'yorini belgilab beruvchi, ularni o'zlashtirib olishimizga, ko'nikma hosil qilishga yordam beruvchi ommaviy axborot, badiiy adabiyot singari kuchli vositalar ham borki, ularni, ayniqsa, badiiy adabiyot namunalari, ana shu ma'noda o'ziga xos ko'zgu deyish mumkin. Chunki ularning tilni qamrash imkoniyatlari boshqa manbalarga nisbatan kengdir.

Shuning uchun ham til va nutq madaniyatidagi haqiqiy ahvolga, vaziyatga baho beruvchi, mavjud kamchiliklarni tanqid qiluvchi, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatuvchi chiqishlar ommaviy axborot vositalari orqali olib borilishi va bu mas'uliyatli vazifani amalga oshiruvchi shu soha xodimlariga, jurnalistlarga, adiblarga tayanib ish ko'rilishi lozim²⁴.

²⁴ <https://iti.bsuir.by/files/science/Conference%20collection,%20The%20End%202011.07.2020%D1%8F%D0%BD%D0%B3%D0%B8.pdf>

Rus tilshunosi G.V.Kostomarov shunday degan edi: “Kishilar ataylab yomon so‘zlamaydilar, balki boshqacha gapirishga o‘rganmaganliklari uchun ham shunday so‘zlaydilar²⁵”. Demak, “boshqacha gapirishga” o‘rganish uchun ham e‘tibor, ham til savodxonligi zarur bo‘ladi. Shu ma‘noda me‘yor tarzida shakllangan, bizga yozish va so‘zlashda andoza bo‘la oladigan namunalar va tavsiyalar kerak.

Gap shundaki, tildan foydalanishda e‘tiborsizlik bilan bir qatorda mas‘uliyatsizligimiz ham bor. Vaholanki, “so‘zni adabiy tilda qabul qilingan normalarga muvofiq - adabiy formalarda qo‘llash... nutqqa qo‘yiladigan umumiy talablarning birinchisidir²⁶” Bu hol qachongacha davom etishini aytish qiyin. Ammo shu paytga qadar til ilmini o‘rganishda to‘plagan tajribalarimiz, olib borilayotgan ilmiy kuzatishlar, ularning hayotga, o‘quv jarayoniga bevosita tatbiqi, kun sayin qalbimizda ravshanlashayotgan milliy o‘zligimizni anglash, xalqning madaniy va ma‘naviy barkamolligi ertami-kechmi barchamizni adabiy til me‘yorlariga yetarli darajada amal qilishga olib keladi, degan umiddamiz.

Garchi ona tilimiz - hozirgi o‘zbek adabiy tilini E.Begmatov ta‘kidlagan “o‘z normativ sistemalarining yuqori darajada shakllanganligi, takomili va boyligi jihatdan yuksak darajadagi madaniy til” sifatida faxrlanib tilga olsak-da, uni yanada yuksaltirish borasigi ishlar keng ko‘lamda, izchillik bilan davom ettirilishi lozim. “Endilikda o‘zbek adabiy tilining madaniy normativ imkoniyatlarini o‘rganish va bu imkoniyatlardan amaliy nutqda o‘rinli va effektiv ravishda foydalana olish yo‘llarini tadqiq qilish, shuningdek, o‘zbek adabiy tili normalarini takomillashtirish, ularning yanada stabillashuvi, o‘tkirlashuvi hamda rivoji uchun ko‘maklashish muhim vazifadir²⁷”.

Til tarbiyasi ham farzand bola tarbiyasiga o‘xshaydi. Intizom ozroq bo‘shashgan joyda u ham albatta o‘zining salbiy natijasini ko‘rsatadi. Bu boradagi ishlarda stixiyaga, kampaniyachilikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Aksincha, bu

²⁵ Kostomarov V.G. *Насущные задачи учений о культуре речи* // *Русский язык в школе*, 1965, № 4, s.3

²⁶ G‘ulomov A.I. *Adabiy til normalari* // «*Nutq madaniyatiga oid masalalar*» to‘plami. – Toshkent, 1973, 59-bet.

²⁷ Begmatov E. *O‘zbek nutqi madaniyati masalalari* // *O‘zbek tili va adabiyoti*, 1980, № 4, 54-bet.

faoliyatni markazlashtirish va muvofiqlashtirish, uni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan, keng jabhada olib boriladigan, odat tusiga kirgan ish darajasiga olib chiqish lozim.

Adabiy til umumxalq tilining yashash shakllaridan biri ekan, unga millat uchun nafaqat yagona aloqa vositasi sifatida, shu bilan birga, qalbimizdagi eng nozik his-tuyg'ularni ifoda eta oladigan qimmatbaho boylik sifatida munosabatda bo'lmog'imiz, uning o'sishi, rivojlanishi uchun doimo g'amxo'rlik qilishimiz, parvarishlashimiz zarur bo'ladi. Nutq jarayonida, ayniqsa, so'zlashuv va badiiy ijod jarayonida uning shunday bir imkoniyatlari ochiladiki, biz uni payqashimiz va bir lahza bo'lsa-da, ochilgan bu xazina boyliklaridan lazzatlana va huzurlana olishimiz lozim.

Til uchun belgilab qo'yilgan me'yoriy holatlar doirasidan chiqib, uning har bir vazifaviy uslub doirasida har bir nutqiy vaziyatda ifoda etayotgan nozik ma'nolarini ilg'ay olish, tahlil qilish va uni turli yo'llar hamda vositalar bilan xalqqa yetkazish til bilimdonlarining burchi va vazifasidir.

Adabiy tilimizning yashovchanligini, obro'sini, martabasini saqlab qolish esa unda belgilangan me'yorlarga qat'iy rioya qilishni taqozo etadi. Chunki zamonlar silsilasida toblangan o'zbek tili, bir tomondan, o'z maromida sayqal topib, silliqlashib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbek tilshunosligi ham fan sifatida ko'plab olimlarimizning sa'y harakatlari tufayli o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. U til birliklarining juda ko'p jihatlarini ilmiy asosida me'yorlashtirishga ko'maklashdi. Boshqacha aytganda, bugunga kelib til me'yorlari ilmiy xulosalarga tayanilgan holda ongli boshqarila boshlandi. Shuning uchun ham o'zbek adabiy tilining hozirgi me'yorlarini, mavjud kamchiliklardan ko'z yummaganda holda, qat'iy qoida va tartibga solingan, yozuvda mustahkamlangan, namuna bo'la oladigan, uning iste'molchilari uchun tushunarli va ma'qul bo'lgan, ular tomonidan bab-baravar foydalaniladigan, umummajburiy bo'lgan, ma'lum ma'noda turg'unlashgan va barqarorlashgan, shu bilan birga, asta-sekinlik bilan o'sib, rivojlanib boruvchi, o'rni bilan variantlari ko'payuvchi,

uslublararo tarmoqlanib, kengayib boradigan, ayni paytda an'anaviylikni ham saqlab qolishi mumkin bo'lgan me'yorlarga aylandi, deb bemalol ayta olamiz.

O'zbek adabiy tili me'yorlari xususida to'plangan bilim va tajribalarga tayanib yana shuni aytish mumkinki, uning umumiy va konkret ko'rinishlari mavjud. Umumiy tarzda uni og'zaki va yozma nutq me'yorlariga ajratamiz. O'z navbatida, yozma adabiy nutq me'yori, yozma adabiy til me'yori va yozma uslub me'yoriga, og'zaki nutq me'yori og'zaki adabiy til, og'zaki uslub me'yoriga bo'linadi. Konkret tarzda esa, tilimizda leksik-semantik, talaffuz, grafik, punktuasion, fonetik, grammatik, so'z yasalishi, orfografik va uslubiy me'yorlar mavjudligini qayd qilamiz.

1.3-§. Adabiy til me'yorlari va uni o'qitish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularning tahlili

Adabiy tilni o'qitish tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sharqda IX-XV asrlarda zaminimizda ilm-fanda taraqqiyot, ijtimoiy-madaniy hayotda yuksalish kuzatiladi. Bu davrda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan qomusiy olimlarimiz turli fanlar bo'yicha erishgan yutuqlari bilan jahon madaniyati, ma'rifati, ilm-u fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Markaziy Osiyoni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beraniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil Jurjoniy, Marg'inoniy, Zamahshariy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar bebaho kashfiyotlari bilan o'z xalqlarining shuhratini olamga yoydilar. Ular ta'lim va tarbiya bobida ham o'chmas iz qoldirdilar. Chunonchi, buyuk mutafakkir Al-Xorazmiy "Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir", — deydi va bilim egallashda ijodiy faoliyatni asos qilib oladi.

Sharqda "Ikkinchi muallim" deb tan olingan Abu Nasr Forobiyning "Ta'lim-tarbiya berish usullari" asaridagi "Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga

yo'naltirishi lozim", — degan fikri "O'zbek tili o'qitish metodikasi"da ham asosiy, bosh mezon vazifasini o'taydi. Abu Rayhon Beruniy har bir ishning kishi ruhiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga alohida e'tibor beradi: "Bizning maqsadimiz talabani toliqtirib qo'ymaslikdir. Agar talaba bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi. Har bir yangi narsa o'rganuvchiga rohat bag'ishlaydi", — deydi buyuk alloma. Bu xulosa til hodisalarini o'rganishda, lisoniy materiallarni joylashtirish va o'qitishda dasturulamal bo'lishi shubhasizdir.

Abu Ali ibn Sino — buyuk hakim, tib ilmining sultoni, ulug' mutafakkir, fanning ko'plab sohalari qatori tilshunoslik bilan ham maxsus shug'ullandi, "Lison ul-arab" (Arab tili) nomli kitob ham yozdi. Abu Ali ibn Sino yozadi: "Sening fikrlaring bola yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting so'zlaringga va nasihatingga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir".

Mahmud Koshg'ariy XI asrdagi buyuk tilshunos olimdir. Garchi uning asari "Devonu lug'otit-turk" ("Turkiy so'zlar devoni") o'z davridagi turkiy so'zlarni izohlashga bag'ishlangan bo'lsa-da, u so'z va uning ma'nolarini aniqlash, so'zdan nutqiy amahyotda foydalanish, nutq madaniyati borasida ham ko'plab ilmiy mulohazalar bildiradi, ilmiy xulosalar aytadi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tildagi fonetik, morfologik qonuniyatlarni, leksik-sintaktik xususiyatlarni, uslubiy o'ziga xosliklarni nozik did bilan qiyoslaydi va tahlil qilib beradi. Muhimi, buyuk alloma XI asrda xalq tilida iste'molda bo'lgan so'zlarning asl manbai, ularning "yashash joyi" bo'lgan badiiy matnlar bilan birgalikda saqlanib qolishiga erishdi.

Sharqdagi so'z va undan foydalanishga qo'yiladigan talablarga misol tariqasida Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: "Ko'p so'zlilik foydasiz mashg'ulotdir. Tuman so'z tugunini bir so'zda yozish mumkin". Zero, kishi so'z tufayli qadr topishi yoki, aksincha, boshi egik bo'lishi

mumkin. Demak, soʻz maʼnolarini ilgʻash, soʻz ishlatish uchun ham bilimdonlik talab etiladi.

Alisher Navoiy oʻzbek tili ravnaqi uchun astoydil kuyindi... Turkiy til ravnaqi uchun qatʼiy kurash olib bordi. Navoiy asarlari til omillaridan, oʻzbek tilining leksik-grammatik imkoniyatlaridan unumli va mahorat bilan foydalanishning oliy namunasi.

XVI—XIX asrlar oraligʻida ham metodika fanining oʻziga xos tarzdagi taraqqiyoti kuzatiladi. Munis, Ogahiy, Dilshodi Bamo, Anbar Otin, Uvaysiy singari mutafakkir adiblarning taʼlim-tarbiya masalalariga ham alohida eʼtibor bilan qaraganlari yaxshi maʼlum.

XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit Turkistonda didaktik gʻoyalarning tarqalishi va rivojlanishi, taʼlim prinsiplari hamda taʼlim metodlari haqida ilmiy asarlar, metodik qoʻllanma va maqolalarning dunyoga kelishiga, pedagogika, qisman metodika fanining rivojlanishi va taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Bunga misol sifatida Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yohud Axloq” asarini keltirish mumkin. U mazkur kitobida: muallimlarning oʻzlari ilmlariga omil boʻlib, shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila choqushturub oʻrgatmoklari lozimdur. Bu ravish taʼlim ila berilgan dars va maʼlumot shogirdlarning diliga tez taʼsir qilub, mulloyi boʻlur”, — deb yozadi.

XX asr boshlarida anʼanaviy oʻqitish usullari yoniga yangi — yevropacha oʻqitish usullari ham kelib qoʻshila boshlaydi. Dastur va qoʻllanmalarni yaratishda mahalliy ziyolilardan Fitrat, Munawar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Murod Shams, Xalil Qayumov, Majid Qodiriy va boshqalar faol ishtirok etadilar.

1940-yillari Oʻzbekistonda S.A.Fessaloniskiyning “Ona tili oʻqitish metodikasi” qoʻllanmasi nashr qilindi. Bu oʻz davri uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻldi. Qoʻllanmaning koʻp qismi nutq oʻstirish va insho masalalariga bagʻishlangan boʻlib, morfologiya va sintaksis oʻqitish metodikasiga alohida eʼtibor qaratilmaydi.

1944-yili Murod Shams “Orfografiya o‘qitish metodikasi”, K.Xayrullaev “Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish” mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Keyinroq, 1950-yili “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasi nashr qilindi (Murod Shams), 1952-yili “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” darsligining 1-qismi (Faxri Kamol tahriri ostida) bosmadan chiqdi. Mazkur qo‘llanma va kitoblarda ona tili darslarini uyushtirish va o‘tkazish bo‘yicha zaruriy ko‘rsatmalar, ona tili o‘qitishni yaxshilash bo‘yicha maslahatlar, mashg‘ulotlarda nutq o‘stirishning usul va vositalari, jadvallar majmuasi, dars ishlanmalari berilgan. Lekin orfografiya va punktuasiyaga, matn ustida ishlashga oid masalalarga to‘xtalinmagan.

1960-yili “Sintaksis va punktuasiya o‘qitish metodikasi” (H.Rustamov), 1969-yili “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (N. Abdurahmonov) kitoblari nashr etildi. Ular o‘z davridagi ona tili o‘qitish metodikasiga qo‘shilgan hissa sifatida baholanishi mumkin. Lekin bu qo‘llanmalarda nutq o‘stirish va uslubiy mashqlar, insho yozish mazmuni va metodikasiga yetarli o‘rin berilmaganligini aytish lozim.

1975-yili nisbatan yangi tipdagi o‘quv qo‘llanmasi “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (Y.G‘ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedov) chop etildi.

1960-80-yillar davomida ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lami yanada kengaydi. Bu sohada tilshunos olimlarimiz qo‘lga kiritgan yutuqlarning amaliyotga tatbiqi bir qadar tig‘izlashgani ko‘zga tashlanadi. Ona tili o‘qituvchilarining talab va ehtiyojlari hisobga olinib, “O‘qituvchilar gazetasi” (hozir “Ma‘rifat”)da ilg‘or ish tajribalari, metodik tavsiyalar izchil yoritila boshlandi. Endilikda “Til va adabiyot ta‘limi”, “Xalq ta‘limi”, “Uzluksiz ta‘lim”, “Kasb-hunar ta‘limi” singari maxsus ilmiy metodik jurnallar ham serqirra ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqdalar²⁸.

²⁸ To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.

O‘zbekistonning mustaqilligi milliy g‘oyaning tug‘ilishi va shakllanishiga olib keldi. Ta’limni umumjahon andozalariga moslash, darsga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zaruriyati tug‘ildi.

Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘zbek tili ya’ni davlat tilini o‘qitishga oid ilmiy tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaydi. O‘tgan qisqa davr ichida ona tili o‘qitishning o‘ta muhim muammolariga oid doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi: T.G‘aniyevning “Ona tilidan mashqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish (idrok etish) faoliyatini faollashtirish” (1991), Sh.Yo‘ldoshevaning “O‘zbek maktablari ona tili darslarida qo‘shma so‘zlarni o‘rgatishdagi izchillik” (1991), Q.Yusupovning “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish” (1993), M.Rajabovanning “Tillarni bog‘lab o‘rgatish orqali o‘quvchilarda do‘stlik-qarindoshlikni tarbiyalash” (1993), N.Murodovanning “O‘quvchi nutqida mahalliy sheva ta’sirida vujudga kelgan talaffuz hamda imlo xatolari va ularni tuzatish usullari” (1993), Q.Yunusovning “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish” (1993), M.Sobirovanning “O‘zbek maktablari yuqori sinf o‘quvchilariga sodda gap sintaksisini munozara usulida o‘rgatish” (1994), N.Sattorovanning “O‘quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish” (5-sinfda ona tili o‘qitish jarayonida) (1995), T.Ziyodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish” (1995), O‘.Ro‘zievaning “Uzluksiz ta’lim jarayonida bolalar bog‘chalari tarbiyalanuvchilari va 1-sinf o‘quvchilari og‘zaki nutqini o‘stirish” (1995), N.Dadajonovanning “O‘zbek tili ta’limi jarayonida talabalarning nutqi ustida ishlash metodikasi” (1996), A.Bobomurodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish” (1997), Sh.Yusupovanning “Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan’anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)” (1998), T.Yusupovanning “Uzluksiz ta’lim tizimi asosida maktabda o‘quvchilarga bosh bo‘laklarni o‘rgatish”(1998), M. Saidovning “O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni

rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi” (2000), G.Qurbonovanning “Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida “O‘zbek tili” fani o‘qitish jarayonida talabalarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi” (2000), L.Mirjalolovanning “O‘zbek tili mashg‘ulotlarida bolalarni savol-javobga o‘rgatishning nazariy-metodik asoslari” (2002), Sh.Bo‘ronovanning “Ta‘lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o‘zbek tili o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari” (2002), M. Qaraxodjaevanning “Nofilologik guruh talabalarining kasbiy nutqini fe‘l asosida shakllantirish metodikasi”(2002), N.Yuldashevaning “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish metodikasi” (2002), M. Mirmaxsudovanning “O‘quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari” (2004), X.Qurbonovanning “Ona tili ta‘limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari” (2005), T.Yusupovanning “Gapning bosh bo‘laklarini o‘rganish jaryonida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning lingvometodik asoslari” (2005), A.Hamroevning “Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limini ijodiy tashkil etish” (2005), M.Jo‘raevning “O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rganish metodikasining shakllanishi”(2005), G.Axmedovanning “O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari” (2006), N.Umarovanning “Talabalarning o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi” (2007), Sh.Nurullaevanning “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasi” (2007), N.Alavutdinovanning “Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi”(2008), A.Husanboevanning “O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari”(2008), Sh.Yuldashevaning “Davlat tili ta‘limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari”(2008), G.Eshchanovanning “O‘zbek tili darslarida she‘riy asarlarni o‘rganishning lingvometodik asoslari” (2009), O.Oxunjonovanning “Ta‘lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o‘qitish metodikasi” (2009), K.Mavlonovanning “Ona tili fanini adabiyit fani bilan bilan

badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish” (2019) mavzularidagi ilmiy-tadqiqot ishlari himoya qilindi. Biz yuqoridagi ishlarga tayangan holda ijodiy fikrlash ko‘nikmasini hosil qilishda yozma ishlarning ahamiyati, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda psixologiya va ona tili fanlarining hamkorligi, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishning omillarini atroflicha yoritishga harakat qildik.

Endilikda “Ona tili o‘qitish konsepsiyasi”, “Davlat ta’lim standartlari”, til o‘qitishning namunaviy dasturlari yaratildi, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’limning bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun darsliklarning yangi avlodi chop qilindi. Ular tajriba-sinovlardan o‘tkazilmoqda. Ta’lim mazmunining yangilangani ta’lim jarayoni, shakli va usullaridagi zamonaviy yangilanishlarni, yangi pedagogick texnologiyalarning joriy etilishini taqozo qiladi.

Bob yuzasidan xulosalar

O‘zbek adabiy tilining qanchalik me’yorga keltirilganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o‘zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan sanalar ekan, bu muammo bilan shug‘ullanish ziyolilar, xususan, tilshunoslarning bundan keyin shug‘ullanishi va hal qilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifasi bo‘lib qolaveradi. Kelajakda o‘zbek tilida uning barcha sathlari bo‘yicha me’yoriy holatlar aniqlangan va ularning natijasi o‘laroq me’yoriy fonetika, me’yoriy leksikologiya, me’yoriy frazeologiya, me’yoriy grammatika, me’yoriy stilistika singari yo‘nalishlar tadqiq etilishi va ularda til faktlari vazifaviy-uslubiy jihatdan tahlil qilinishi lozim.

II BOB. Adabiy til o‘qitish darslarida qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar

XXI asr — yuqori kompyuter texnologiyalari asri. Zamonaviy bola elektron madaniyat dunyosida yashaydi. Axborot madaniyatida o‘qituvchining o‘rni ham o‘zgarib bormoqda — u axborot oqimining muvofiqlashtiruvchisi bo‘lishi kerak. Binobarin, o‘qituvchi bola bilan bitta tilda muloqot qilish uchun zamonaviy usullar va yangi ta’lim texnologiyalarini yaxshi bilishi kerak. Yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning mamlakatimizda joriy etilishi zamonaviy bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda o‘z izini qoldirdi. Bugungi kunda “o‘qituvchi - o‘quvchi – darslik” an’anaviy sxemasi - kompyuter va maktab ongiga - kompyuterni o‘qitishning yangi havolasi kiritildi. Ta’limni axborotlashtirishning asosiy qismlaridan biri bu ta’lim fanlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

2.1-§. An’anaviy darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Ona tili va adabiyot darslarida audio, video materiallaridan, darslik va qo‘llanmalardan foydalanish, multimedia va elektron darsliklarning tuzilishi, XX asrning oxiri planetamizda axborot-informatizatsiyalash asriga qo‘yilgan qadam bo‘ldi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Fan va texnikaning bu yutuqlari o‘zining samaradorligi bilan o‘quv yurtlari ta’lim tizimini isloh qilishga olib keladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlari, o‘quv yurtlari tizimida, asosan, kompyuter tarmoqlari va internet tizimlarini qo‘llashning zamonaviy talablaridan biriga aylantirmoqda. Mamlakatimizda multimedia, taxminan, 1980-yilning oxirlarida paydo bo‘ldi. Bu vaqtda multimedia xonadon kompyuterlarida emas, balki mutaxassislar tomonidan ishlatilgan. 1993-yilga kelib multimedialar

tadqiqotchilar jamoasi , tayyor multimedia mahsulotlari va ularning iste'molchilari tomonidan foydalanila boshladi.²⁹

O'zbek tili va boshqa tillarni o'rgatishda kommunikativ muloqotga o'rgatuvchi zamonaviy metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning fanga, tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va dunyoqarashini o'stiradi. O'qituvchi interfaol metodlarni qo'llash bilan birga informatsion texnologiyalardan foydalanishi til o'rganishda ko'proq samara beradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida elektron resurslar, multimedialardan keng foydalanilmoqda.

Multimedia — kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni va turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni mujassamlantirish imkonini beruvchi zamonaviy kompyuter axborotlari texnologiyasidir.

Multimedia — kompyuterga matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni va turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni kiritish, chiqarish, qayta ishlash, saqlash, uzatib berish texnologiyalari ko'paytmasidir.

Multimedia — bu interaktiv tizim bo'lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni, videoni qo'zg'almas harakatini turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni orqali jonlantirish, ovozini kuchaytiruvchi vositadir. Multimediaga displey ekranidagi ovoz effekti orqali qo'zg'almas tasvir va ovoz orqali grafik tasvir harakatlanuvchi tasvir animatsiyalari kiradi.³⁰

Multimedia tizmining paydo bo'lishi ta'lim tizimida, san'at, kompyuter treninglar, kompyuter o'yinlari, o'tkazishda juda katta o'zgarishlar olib kirdi.

Hozirgi kunda multimedia so'zini uch xil tushunish mumkin:

- “multimedia — g'oya”, bu turli toifadagi axborotlarni saqlashning yangicha yondashuvidir. Kompyuter texnikasini rivojlanishi turli toifadagi axborotlarni qayta ishlashga olib keldi: raqamlar bilan boshlandi, kompyuterda matn qayta

²⁹ To'xliyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 yil, 9-bet.

³⁰ Tyschenko O.B. Kompyuterni o'rganishning yangi vositalari - elektron darslik // o'quv jarayonidagi kompyuterlar, 1999 y., 10-son.

ishlanishi o‘rnatildi, tasvir va tovush ma’lumotlari qayta ishlanuvchi obyektga aylantirildi, hozirgi kunda kompyuter bemaol video tasvirlarni ovoz bilan ta’minlashi mumkin;

- turli tabiatdagi axborotlar bilan ishlashni ta’minlaydigan qurilmalar. Bularga multimedia platasi, multimedia komplekslari va multimedia markazlari kiradi;
- “multimedia mahsuloti”-yuqorida keltirilgan turli toifalardan tashkil topgan mahsulotdir.

2004-2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi maktablarning moddiy - texnika bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan elektron darsliklar yaratish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Shunday ekan, elektron darsliklar yaratishdan maqsad, ularga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat? Uning qanday turlari va variantlari mavjud? kabi savollarga ilmiy asoslangan javob topish talab etiladi. Elektron darslik yaratishda mualliflar guruhi e’tiborini qaratadigan jihatlar quyidagilardan iborat:

- elektron darslik yaratishda fanning o‘quv dasturini asos qilib olish;
- elektron darslikka qaratilgan materiallarni malakali o‘qituvchi-professorlarning amaliy tajribalari, fan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muhokama qilish;
- o‘quvchi - talabaga bilim, ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘mak beruvchi tushunchalardan o‘z o‘rnida foydalanish;
- o‘quvchi - talabalarga fan mavzusiga aloqador yangi bilimlarni tushunishda yordam beradigan qiziqarli sxemalar, diagrammalar, turli chizmalar va jadvallarni elektron darslikka kiritish;
- erishilgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashqlar va nazorat savollarini keltirish;
- elektron darsliklarni yaratishda ilg‘or O‘zbek tajribalardan foydalanish;
- elektron darslikning tili, mazmuni o‘quvchilarning tahsil olish sharoitlari va qobiliyatlari, yoshiga mos kelishini inobatga olish; o‘qituvchi —

professorlarning elektron darslikdan samarali foydalanishi uchun uslubiy qo‘llanmalar yaratish va h.k.³¹

Yaratilgan elektron darsliklarning ilmiylik va taqdimot sifati o‘quv rejaga moslik; mavzu bayoni; til darajasi; manba tuzilishi; taqdimot va dizayn; illyustratsiya; muammolarga ta’sirchanligi kabi mezonlarga javob bershi lozim. Elektron darslik muallif va mualliflar guruhi tomonidan ma’lum bir dasturlash tilida yoki Sht1 - gipermatnli til yordamida yaratiladi. Elektron darslik foydalanish uchun ikki variantda online va offline da yaratilishi mumkin. Elektron darslikdan online variantda foydalanishda kompyuter texnikasi global yoki lokal tarmoqqa ulangan bo‘lishi lozim.³²

Elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- matnning elektron versiyasi;
- kitobning gipermatnli elektron versiyasi;
- grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- animatsiya, OVOZ, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

- yomon + qoniqarli ++ yaxshi +++ a’lo³³

Elektron darsliklarning an’anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

- O‘quv axborotlarining taqdim etilish shakli
- Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati.
- Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarning mavjudligi.
- O‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi³⁴

³¹To‘xliyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 yil, 9-bet.

³²To‘xliyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 yil, 9-bet.

³³Tyschenko O.B. Kompyuterni o‘rganishning yangi vositalari - elektron darslik // o‘quv jarayonidagi kompyuterlar, 1999 y., 10-son.

³⁴Google axborot portali

Shulardan kelib chiqib, elektron darsliklarni yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin:

- multimedia-ma'lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;
- qidirish va yo'llash imkoniyatlarini kiritish;
- olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning obyektiv tizimini kiritish;
- tarmoq texnologiyalari asosida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro interaktiv vateskari aloqsining yo'lga qo'yilishi.³⁵

O'zbek tili va boshqa tillarni o'rgatishda kommunikativ muloqotga o'rgatuvchi zamonaviy metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning fanga, tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va dunyoqarashini o'stiradi. O'qituvchi interfaol metodlarni qo'llash bilan birga informatsion te

Bugungi kunda ta'lim jarayonida elektron resurslar, multimedialardan keng foydalanilmoqda.

Multimedia tizmining paydo bo'lishi ta'lim tizimida, san'at, kompyuter treninglar, kompyuter o'yinlari, o'tkazishda juda katta o'zgarishlar olib kirdi. O-Npe variaantda tarmoqqa ayrim hollardagina kiriladi. Odatda, bu variantda elektron darslik SO diskka yoziladi va o'quvchiga beriladi.³⁶

Elektron darslikning strukturasi umumiy holda keltirilgan sxema asosida tavsiflanadi. Shunday qilib, elektron darslik o'quv dasturiga va o'quv-metodik nashr talablariga mos kelishi lozim. Elektron darslik tamomila yangi, ya'ni birinchi bor chop qilinishi yoki oldin nashr qilingan o'quv metodik qo'llanmaning elektron versiyasidan olingan bo'lishi mumkin. Unda: kurs yoki fan mazmunini ochib berish uchun yetarlicha material va hajmga, o'quv-metodik maqsadlarga erishishni quvvatlovchi illyustrativ materiallarga ega bo'lish; darslikning barcha qismlariga

³⁵ Zimina O.V. Oliy o'quv yurtlarida bosma va elektron o'quv nashrlari: Nazariya, metodika, amaliyot. - M.: MEI, 2003.

³⁶ To'xliyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 yil, 9-bet.

— manba va resurslarga erkin murojaat mavjudligi; darslik tipi³⁷ — o‘zbek tilidan boshqa tillarga o‘tish imkoni mavjudligi sanab o‘tilgan mezonlar elektron darslik yaratishga qo‘yiladigan asosiy talablar bo‘lib, ular bevosita ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ED bilan ishlash uchun ma‘lumotlar tizimi.

Elektron darslikning muqovasi imkoniyat darajasida chiroyli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun uni grafika va multimedia, animatsiya kabi elementlar bilan boyitish zarur. EDning muqovasida darslikning nomi, yuqori tashkilot haqida ma‘lumot (masalan, vazirlik), mualliflik huquqi, yaratilgan vaqti, EDni yaratgan tashkilotning nomi, mualliflar haqida qisqacha ma‘lumot olish imkoniyati mavjud. Bu ma‘lumotlarning ma‘lum bir qismi (mualliflar haqida ma‘lumot, ED ni yaratgan tashkilot, mualliflik huquqi) kabilar maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi.³⁸

Mundarija EDning juda muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. U bir tomondan yetarli darajada mavzular ketma-ketligi asosida o‘quv jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish uchun keng yo‘l ochib beradi. Shularni inobatga olgan holda o‘rta ta‘lim maktablarining matematika, fizika, informatika, geografiya, iqtisodiy bilim asoslari, ona tili va adabiyot, o‘zbek tili (boshqa tili guruhlar uchun) fanlaridan elektron darsliklar yaratishga kirishildi.

2.2-§. Multimediya vositalari orqali talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish

Eksperimental ishning ushbu bosqichining maqsadi - video loyiha doirasida yangi topshiriq formatlarini sinab ko‘rish. og‘zaki talaffuz qobiliyatlari va og‘zaki nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun . o‘zbek tilining tovush tuzilishini, alohida unli va undosh tovushlarning artikulyatsiyasi xususiyatlarini, o‘zbek tili

³⁷ Информационно-образовательные технологии в контексте концепции личностно-развивающего обучения. <http://elibrary.ru/item.asp?id=12877546>

³⁸ Tyschenko O.B. Kompyuterni o‘rganishning yangi vositalari - elektron darslik // o‘quv jarayonidagi kompyuterlar, 1999 y., 10-son.

fonemalarining differentsial xususiyatlarini o‘rganib chiqqandan so‘ng, ularning fonetik savodsizligi va shevalar aralashuvi tufayli buzilishiga olib keladi. fonologik xatolar paydo bo‘lishi uchun o‘quvchilar izchil matnlar misollarida fonetikani o‘rganishni boshlaydilar.

Biz izchil matndagi asosiy tushunchalarni ta’kidlab, nutqning sekin sur’ati zarurligini ta’kidlaymiz, chunki o‘zbek tilida so‘zlovchi uchun chet tili sifatida asosiy vazifa boshqalar tomonidan tushunilishidir. O‘rganilayotgan mavzuning bir qismi sifatida biz ma’ruzachi nutqini tahlil qiladigan yangiliklar dasturidan lavha - videotasmani namoyish qilamiz.

O‘quvchilarga quyidagi vazifalarni bajarish taklif etiladi: Topshiriqning maqsadi: telekanalning videoko‘rsatmasidan parcha ko‘rish va ma’ruzachi nutqining asosiy xususiyatlarini aniqlash.

Vazifa 1. Yangiliklar dasturining dastlabki 30 soniyasini tomosha qiling va berilgan variantlardan birini tanlab yoki o‘z javobingizni taklif qilish orqali quyidagi savollarga javob bering. Yangiliklar boshlovchisining nutqini tavsiflang:

1. Yangilik boshlovchisining nutqi tushunarlimi?

A. Ha B. Yo‘q C. Deyarli tushunarli

2. Nima tushunarli?

A. To‘xtab, pauza bilan gapiradi

B. Nutq tempi

C. Ma’ruzachi asosiy fikrlarni ta’kidlaydi.

3. Nima uchun kerak bu tahlil?

Birinchi topshiriqni bajarishda talabalar bilan birgalikda yangiliklar boshlovchisining nutqini tahlil qilib, berilgan savollarga javob beramiz. Rahbarning nutqi barcha 27 nafar o‘quvchi tomonidan tushunarli va aniq deb tan olingan. Ikkinchi savolga - uning nutqini tushunarli qiladigan narsaga javob berib, talabalar quyidagi variantlarni taklif qilishdi:

- “Ta’qdimotchi juda tez gapirmaydi, bu deyarli har bir so‘zni aniq eshitish imkonini beradi”.

- “Taqdimotchi soʻzni yutmasdan yoki tugatmasdan juda aniq va baland ovozda gapiradi”

- “Maʼruzachining nutqi ritmik, biz diqqat qilishimiz kerak boʻlgan asosiy soʻzlar taʼkidlangan”.

- “Maʼruzachi oʻz nutqida jumlar yoki bitta yangilik mavzusining oxirida uzoq pauzalarni saqlaydi. Nutqning bunday pauzal boʻlinishi uni semantik qismlarga ajratishga va maʼlumotni idrok etishni osonlashtirishga imkon beradi³⁹”. Oʻquvchilarning oʻzlari yangiliklar boshlovchisining nutqini tavsiflashlari biz uchun juda muhim edi, chunki ular oʻzlari uchun maʼruzachi nutqini tushunarli qiladigan, oʻz nutqida kuzatilishi kerak boʻlgan xususiyatlarni aniqladilar, chunki javob talab qilganidek. Uchinchi savol (“Nima uchun soʻzlovchining nutqi tushunarli boʻlishi kerak?”), soʻzlovchining asosiy maqsadi - tushunarli boʻlish, tinglovchilarga maʼlum maʼlumotlarni yetkazish. Birinchi vazifani bajarish natijasida talabalar qanday gapirish va ovoz berish haqida aniq tasavvurga ega boʻladilar, tinglovchilar maʼruzachining nutqini eshitishlari va tushunishlari uchun. Ushbu videokoʻrsatuvning ikkinchi vazifasida biz oʻquvchilarni muhokama qilingan parchani (30 soniya) yana bir bor tomosha qilishni taklif qildik, bu esa yangiliklar diktoring nutqidan soʻzlar yoki iboralarni yozib olish, soʻngra taqlid qilib, diktor oʻrniga videotasvirni ovoqli qilish imkoniyatini berdi. uning nutqi va topshiriq natijalariga koʻra biz birgalikda aniqlagan belgilarga rioya qilish

1. Topshiriqning maqsadi: yangiliklar diktori nutqining asosiy belgilarini mashq qilish: nutqning sekin tezligi, frazali urgʻu, matnning pauzal boʻlinishi. iboralar va jumlar, oʻzingizni biror bir telekanalining diktor sifatida tasavvur qiling va videokoʻrsatuvdan parchani ayting .

2. Topshiriq . Biz 1-topshiriqda muhokama qilgan nutqining xususiyatlarini eslab, boshlovchining nutqiga taqlid qilishga tayyorlanish uchun yangiliklar dasturining xuddi shu qismini yana bir bor tomosha qiling . Videokoʻrsatuvdan parchani yana

³⁹ Гершунский Б.С. Компьютеризация в образовании: проблемы и перспективы: монография / Гершунский Б. С. — М.: Педагогика, 1987.

ijro etdik (30 soniya), so'ng o'quvchilarga tayyorgarlik ko'rishlari uchun 2 daqiqa vaqt berdik va ovozni o'chirib, xuddi shu parchani ijro etdik. Har bir o'quvchi videotasvirni ovoz chiqarib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ta'kidlash joizki, talabalar o'zlarini yangiliklar dasturining boshlovchisi sifatida bajonidil sinab ko'rdilar. Topshiriqni bajarishda ular rahbarning nutqiga taqlid qilishga va birinchi topshiriqda aniqlangan nutqining xususiyatlariga rioya qilishga harakat qildilar. Shunday qilib, og'zaki nutq amaliyotida o'quvchilar sekin tezlikni saqlashga, so'zlarning oxiri va so'zlarini yutmasdan, aniq gapirishga, matnning pauzal artikulyatsiyasini kuzatishga harakat qildilar. Uchinchi vazifa sifatida biz o'quvchilarga videoko'rsatuvda (28 daqiqa) taqdim etilgan yangiliklar dasturini to'liq tomosha qilishni va yangiliklarning tartibini va ularni taqdim etish xususiyatini jadval va diagrammalardan foydalanish qayd etgan holda uning yozma rejasi yoki diagrammasini tuzishni taklif qildik. , diagrammalar, bir biri bilan suhbatlar, keyingi og'zaki xulosalar uchun (sinf tahlili). Topshiriqning maqsadi: taklif etilayotgan axborot dasturining tuzilishi va yangiliklarni taqdim etish xarakterini tahlil qilish va ushbu tahlil orqali o'z axborot dasturini yaratishga tayyorgarlik ko'rish. Vazifa 3. Endi yangiliklar dasturini to'liq tomosha qiling va uning rejasini sharhlab yozing: - taqdim etilgan yangiliklar va ularning tartibi; dasturda foydalanilgan har qanday jadvallar, sxemalar, diagrammalar yoki suhbatlar ; - yangiliklar boshlovchisining roli⁴⁰. Yangiliklar dasturining videofaylini tomosha qilar ekan, talabalar dastur rejasini tuzib, yoritilgan yangiliklar, uning ketma-ketligi va yangiliklar boshlovchisining barcha dasturlar o'rtasidagi bog'lovchi rolini ta'kidlab, bizni navbatdagi yangiliklar bilan tanishtirishdi. Keyingi sonidagi yangiliklar, xulosalar chiqaradi, tomoshabinni kutib oladi va u bilan xayrlashadi. Bundan tashqari, ushbu topshiriqning bajarilishi talabalarga telekanalining turli diktorlari, shuningdek, oddiy o'tkinchilar intervyu berish orqali

⁴⁰ Государственная программа «Информационное общество» Российской Федерации (2011-2020 годы) [Электронный ресурс]: Целевые программы: [Утверждены постановлением Правительства Российской Федерации от 20 октября 2010 г. № 1815-п]. URL: <http://mmsvuz.ru/ra/activity/programs/1/> (дата обращения: 05.09.2018)

taqdim etilgan. O'quvchilar bilan birgalikda biz yangiliklar dasturi boshlovchisining roli juda muhim, chunki u yangiliklarni taqdim etishning butun jarayonini tashkil qiladi, shuning uchun uning nutqi tushunarli bo'lishi kerak degan xulosaga keldik. Bundan tashqari, talabalar qiziqarli axborot dasturi nafaqat yangiliklar mazmuni, balki ularni ko'rgazmali materiallar (jadval, grafik) va intervyu va hokazolardan foydalangan holda taqdim etish orqali ham tayyorlanishini ta'kidladilar. Sinfda uchta vazifani birgalikda tahlil qilish natijalariga ko'ra, biz o'quvchilarni uyda o'zlarining yangiliklar dasturini yaratishga tayyorladik, bunda ular ma'ruzachi nutqining fonetik xususiyatlarini ham hisobga olishlari kerak (o'zbek tilidagi tovushlarning to'g'ri ifodalanishini, fraza urg'usini, pauza) va yangiliklar dasturini tashkil etishni va taqdimotchining rolini ko'rsatadigan segmental darajalar, barcha guruh a'zolari o'rtasida rollarni malakali taqsimlash va e'lon qilingan baholash mezonlariga rioya qilish. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar bir hafta davomida loyiha rejasini tayyorlaydilar, uni yangiliklar bilan to'ldirishni muhokama qiladilar, lekin eng muhimi, o'z rollarini "yozish", nutqni ko'p marta mashq qilish, uni o'zgartirish yoki qo'shimcha ma'lumot qo'shish uchun tayyorlaydilar, shu bilan ularning nutqini talaffuz qiladilar. O'ndan ortiq marta. Bu har qanday mavzu bo'yicha eng yaxshi og'zaki amaliyotdir. Darsdan keyin uy vazifasi va videoloyiha ishlab chiqishga tayyorgarlik bosqichi sifatida o'quvchilarga belgilangan mezonlarga muvofiq "yangilik dasturi" mavzusida guruh videoloyihasi tayyorlash topshiriladi. Ushbu turdagi topshiriqlarni bajarish uchun har bir guruh o'quvchilarini 3-5 kishidan iborat 2 ta kichik guruhga ajratamiz. Bundan tashqari, ishchi guruhlarga bo'linish tasodifiy emas, tarkibini o'ylab ko'rish va guruhlarni natijalar bo'yicha tenglashtirish imkoniyati mavjud. E'tibor bering, har bir guruhda kuchli, o'rtacha va zaif talabalar, albatta, qizlar va o'g'il bolalar bo'lishi kerak. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, eng muvaffaqiyatli guruh a'zolari bir-birini to'ldiradigan guruhlardir: biri samarali,ona tili faniga qiziqadi, har doim darslarga tayyor va ularni o'tkazib yubormaydi, lekin hissiy emas yoki ijodiy yondashuvni namoyish etmaydi;

ikkinchisi bunday topshiriqlarni amalga oshirishda shaxsiy tajribaga ega yoki har xil turdagi texnik qurilmalarni mohirona boshqaradi, ijodkorlikni namoyish etadi, lekin ona tili darslarida yomon o'qiydi yoki har doim ham fanga qiziqish bildirmaydi; uchinchisi kam biladi yoki amaliy fonetika bo'yicha darslarga kamdan-kam qatnashadi, lekin bu masala bilan qiziqadi. Teng ishchi guruhlarini tuzishda biz doimo talabalarga e'tibor qaratamiz. Bir xil ishlash va ijodiy salohiyatga ega ikkita ishchi guruh tuzilgandan so'ng, biz o'quvchilarga o'zlarining multimedia mahsuloti - video loyihasini yaratishni taklif qilamiz. Vazifaning maqsadi: tovushlar artikulyatsiyasining sekinligi va ravshanligini, iboraning pauzal artikulyatsiyasini, frazaviy urg'uni va har xil turdagi (tasdiq va so'roq) nutqning ritmik-intonatsion dizaynini amalda ishlab chiqish. yetakchi yangiliklar nutqi va "yangilik dasturi" mavzusida video loyiha shaklida multimedia mahsulotini namoyish etish 4-topshiriq. Guruhingizda birgalikda darsda muhokama qilgan yangiliklar dasturi asosida "Yangiliklar dasturi" nomli videoloyiha yarating. Guruhning har bir a'zosi qanday rol o'ynashini va kim yangiliklar olib borishini hal qiling. Quyidagi mezonlarni unutmang:

1. Videongiz 10-12 daqiqa davom etishi kerak.
2. Video loyihangizni biz sinfda muhokama qilgan yangiliklar dasturiga asoslang, shuni yodda tutingki, yangiliklar dasturini bitta yangilik boshlovchisi va 3-4 nafar yangilik muxbiri bo'lishi kerak.
3. Rasmiy uslubga rioya qilgan holda dasturingizda yoritish uchun istalgan yangilikni tanlashingiz mumkin .
4. Har bir guruh a'zosining nutqi 2 daqiqa davom etishi kerak.
5. yangiliklari boshlovchisi va muxbirlari nutqining asosiy xususiyatlarini eslang va ularni nutqingizda mashq qiling (nutqning sekin tempi, pauza, so'z va jumla urg'usi).
6. Biz allaqachon o'rgangan fonetik qoida va hodisalarga rioya qilishni unutmang (unli va undosh tovushlarning artikulyatsiyasi, va h.k.)

7. Har bir guruh a'zosi o'z bahosini oladi.⁴¹

Hech qanday maxsus jihoz kerak emas. Videofayllaringizni mobil telefoningizga yozib olishingiz va uni flesh-xotira kartasiga darsga olib kelishingiz yoki elektron pochta orqali yuborishingiz mumkin. Agar sizda biron bir shubha bo'lsa yoki maslahat kerak bo'lsa, o'qituvchingiz bilan bog'laning. Video loyihalarni yakunlash uchun bir hafta vaqt beramiz, bu vaqt davomida talabalar yangiliklar dasturi uchun mavzuni o'ylab topishlari, dastur boshlovchisi va muxbirlarning rollarini taqsimlashlari, o'z loyihalarida taqdim etadigan yangiliklarni tanlashlari, ular sheriklarini o'z ichiga oladimi yoki yo'qligini hal qilishlari kerak. Agar tashkiliy muammolar yuzaga kelsa, biz talabalarga elektron pochta orqali o'qituvchi bilan qo'shimcha maslahat olish imkoniyatini beramiz.

Kerakli texnik vositalar:

- Videoklip/videofaylni yozib olish uchun o'rnatilgan kamera bilan jihozlangan mobil telefon (smartfon);
- Kompyuter (shaxsiy kompyuter) va Internetga ulanish sifatini (tovush, shovqin, rasm holati) tekshirish va uni o'qituvchiga elektron pochta orqali yuborish.⁴²

Ta'kidlash joizki, zamonaviy o'quvchilar mobil qurilmalar va shaxsiy kompyuterlarning turli funktsiyalaridan foydalanishda o'zlarining bilimlari bilan hayratda qolishadi. Bir necha yillik tahsil olayotgan o'quvchilar tomonidan biz uchun tayyorlangan guruh video-loyihalari ajoyib tarzda ishlab chiqilgan va suratga olingan videofayllar bo'lib, haqiqatan ham televizorda namoyish etishga arziydi, unda o'quvchilar yangiliklar boshlovchilari va muxbirlarining nutqini hayratlanarli aniqlik bilan taqlid qilishdi. Ko'pgina videoloyihalarda haqiqiy o'tkinchilar bilan suhbatlar, barchasi o'zbek tilida, haqiqiy yangiliklar dasturlari

⁴¹ Государственная программа «Информационное общество» Российской Федерации (2011-2020 годы) [Электронный ресурс]: Целевые программы: [Утверждены постановлением Правительства Российской Федерации от 20 октября 2010 г. № 1815-п]. URL: <http://mmsvyaz.ru/ra/acivity/programs/1/> (дата обращения: 05.09.2018)

⁴² Tyschenko O.B. Kompyuterni o'rganishning yangi vositalari - elektron darslik // o'quv jarayonidagi kompyuterlar, 1999 y., 10-son.

qo‘shimchalari, voqea joyidan reportajlar, rasmlar, diagrammalar va statistika mavjud edi. Bundan tashqari, ba‘zi o‘quvchilar chet tillar o‘qituvchilarini jalb qildilar, ular talabalarga yordam berishdan xursand bo‘lishdi va ishtirok etishga rozi bo‘lishdi, intervyu berdilar yoki maktab hayotidagi ba'zi voqealar haqida fikr bildirdilar.

Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani 33-maktabning 5-sinf o‘quvchilari o‘zbek tili fonetikasi bo‘yicha video loyihasi uchun o‘zbek tilida intervyu berdi. Ushbu formatdagi vazifani bajarish amaliyoti - video loyiha zamonaviy o‘quvchilarning o‘z videolarini yozib olishga qodir ekanligini aniqladi. Ular bu topshiriq ustida bajonidil guruhlarda ishladilar va topshiriqni bajarish mezonlariga muvofiq a‘lo natijalar ko‘rsatdilar. Videoloyihalarni tekshirish bitta fonetika darsi doirasida amalga oshiriladi va quyidagicha tuziladi:

2.3-§. Zamonaviy elektron darsliklardan olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish

Amaliy o‘zbek tili fonetikasini o‘rgatish uchun taklif etilayotgan optimallashtirish modeli samaradorligini va ishlab chiqish uchun yaratilgan vazifa formatlarini aniqlash maqsadida. Og‘zaki talaffuz ko‘nikmalari va og‘zaki nutq ko‘nikmalari, xususan, fonetika bo‘yicha eksperimental mashg‘ulotlardan oldin va keyin o‘quvchilarni ona tilidagi nutqini tahlil qilish va eksperimental mashg‘ulot oxirida talabalar o‘rtasida so‘rov natijalarini statistik qayta ishlashni amalga oshirdik. O‘quvchilarning eksperimental guruhlarining audio va video yozuvlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan holda o‘quvchilar nutqining fonetik tahlilini o‘tkazdik. Ular zamonaviy maktabning fonetik “portretini” tuzishda foydalanilgan. eksperimental ta’limni joriy etishdan oldin maktab-universitet ostonasidagi talaba uchun matematik-statistik tahlilning birlamchi va ikkilamchi usullaridan foydalandik: Birlamchi usullar tajribada o‘tkazilgan o‘lchovlar natijalarini bevosita aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni olish uchun qo‘llaniladigan usullardir. Statistik ishlov berishning asosiy usullariga, masalan,

o'rtacha arifmetik, rejim va medianani aniqlash kiradi. Ikkilamchi usullar statistik ishlov berish deb ataladi, ular yordamida birlamchi ma'lumotlar asosida ularda yashiringan statistik qonuniyatlar ochiladi. Ikkilamchi usullarga odatda regressiya tahlili, omil tahlili, ikki yoki undan ortiq namunalarning birlamchi ma'lumotlarini solishtirish usullari kiradi.

Birlamchi o'rta maqsad: o'lchov natijalarini bevosita aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni olish;

Eksperiment maqsadi: birlamchi ma'lumotlar asosida ularda yashiringan statistik qonuniyatlarni ochib berish;

O'rtacha arifmetik ta'rif mohiyati: Bu ko'rsatkich tajribaning barcha ishtirokchilari tomonidan test natijalarini tavsiflovchi eng tipik natijani ko'rsatadi.

Tasodifiy miqdorni tahlil qilish test mohiyati: turli tanlamalarga tegishli ikki yoki undan ortiq elementar statistik ma'lumotlarni (o'rtacha, dispersiya va boshqalar) solishtirish usullaridan biri. O'quvchining t-testi ikkita ma'lumotlar to'plamiga tegishli bo'lgan namunaviy vositalarni solishtirish va o'rtachalar bir-biridan statistik jihatdan sezilarli darajada farq qilish yoki yo'qligini aniqlash uchun ishlatiladi.⁴³ Bu miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilishda o'rtacha farqlarning haqiqiyliги haqidagi farazlarni tekshirish uchun ishlatiladigan parametrik usul test mavjud ma'lumotlarga ko'ra statistik ma'lumotlarni hisoblash, uni jadval qiymati bilan taqqoslash va vositalarning tengligi to'g'risida xulosa chiqarishdan iborat. Tasodifiy miqdor ta'rifi statistik qiymat sifatida individual qiymatlarning ma'lum bir ma'lumot namunasidagi o'rtacha qiymatdan qanchalik og'ishini tavsiflaydi. Tasodifiy miqdor qanchalik katta bo'lsa, ma'lumotlarning og'ishi yoki tarqalishi shunchalik katta bo'ladi. Normadan chetlanishni aniqlash: Shaxsiy ma'lumotlarning o'rtachaga nisbatan tarqalishini aniqlash uchun standart (yoki namunaviy) og'ish deb ataladigan Tasodifiy miqdordan olingan qiymatdan foydalaniladi.

⁴³ Tyschenko O.B. Kompyuterni o'rganishning yangi vositalari - elektron darslik // o'quv jarayonidagi kompyuterlar, 1999 y., 10-son.

1) Har bir ishchi guruh, agar ish oldindan elektron pochta orqali yuborilmagan bo'lsa, elektron tashuvchida videoloyiha taqdim etadi. Har bir guruh o'quvchilariga jami 2 ta tugallangan videoloyiha to'g'ri keladi.

2) Video loyihalarni istalgan tartibda ko'rish mumkin.

3) Videoloyihani birinchi marta ko'rishdan oldin talabalar quyidagi topshiriqni oladilar: Topshiriqning maqsadi: ikkinchi ishchi guruhning e'tiborini jalb qilish va ko'rish jarayonida ularning ishini tashkil etish. 1-topshiriq Guruhdoshlaringizning videosini tomosha qiling va ular berilgan barcha mezonlarga rioya qilganliklarini ayting.

1. Video 10-12 daqiqa davom etadi;

2.Video biz sinfda muhokama qilgan yangiliklar dasturiga asoslangan;

3. Bitta yangilik boshlovchisi va bir nechta muhbirlar bor;

4.Ishlatiladigan nutq uslubi butun videoda rasmiy;

5.Har bir guruh a'zosining nutqi 2 daqiqa davom etadi;

6.Ma'ruzachilar yangiliklari boshlovchisi va muxbirlari nutqining asosiy xususiyatlarini namoyish etadilar (nutqning sekin tempi, pauza, so'z va jumla urg'usi);

7.So'zlovchilar biz o'rgangan fonetik qoida va hodisalarga amal qiladilar (unli va undosh tovushlarning artikulyatsiyasi, intilish; palatalizatsiya, devoicing va hokazolardan qochish)

8.Videofayl ikkinchi marta ko'rib chiqiladi va o'quvchilar, shu jumladan ish mualliflari loyihani ular tomonidan ilgari taklif qilingan jadval bo'yicha baholaydilar

9. Taqdimotdagi fonetik, fonologik xato va noaniqliklar haqida so'z yuritiladi.

10.Guruhning barcha a'zolari taqdim etilgan videoloyihaga qo'shgan hissasi hamda xato va noaniqliklar soniga qarab baholanadi.⁴⁴ Vazifaning o'zi murakkabligi va uni bajarish va baholash mezonlariga qo'yiladigan qat'iy

⁴⁴ Евдокимова М.Г. Инновации в профессионально ориентированном обучении иностранным языкам // Магия ИННО: новые измерения в языкознании и лингводидактике: сб. научные работы; Том 2 Т. 2/отв. изд. Д.Н. Новиков. - М.: МГИМО-Университеты, 2017. - С. 47-52.

talablarga qaramay, ko'pchilik o'quvchilar topshiriqni "a'lo" va "yaxshi" baholar bilan engishadi. Bu shuni isbotlaydiki, o'zini videoga yozib olish va uni darhol ko'rish qobiliyati talabalarga o'z ishlarini baholash va videoning yana bir nechta suratlarini yozib olish, ularning talaffuzini yaxshilash va fonetik ko'nikmalarni takomillashtirish imkonini beradi. Guruhda ishlash darsda o'zingizni videoda ko'rsatishdagi psixologik to'siqni engishga yordam beradi va video loyihani tayyorlash va tashkil etish vazifasini osonlashtiradi.

2.4-§. O'zbek tili fonetikasini o'rgatishda interaktiv metodlar

Fonetik mashqlarni amalga oshirishning interaktiv usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. "fonetik mashqlar" dasturini kompyuterga yuklash. Bunda kompyuter ovoz qurilmasiga tovushlar o'quvchilarga tushunarli bo'lgan ravon talaffuz bilan ovozli yozib olinadi. Shu bilan birga o'quvchilarning yozuv tezligi hisobga olinishi uchun vaqt belgilash dasturi sozlanadi.

2-bosqich. Nazorat diktantini yozish. Kompyuter ish stolida "Diktant dasturi" yorlig'i vositasida mazkur dastur ishga tushiriladi. Dastur oynasida nazorat diktanti mavzulari ro'yxati havola etilgan bo'lib, o'quvchilarga o'qituvchi tomonida muayyan mavzu tanlab beriladi. So'ngra vaqt belgilash dasturi ishga tushirilib, bir vaqtning o'zida diktant yozishga kirishiladi. Nazorat diktantini yozdirish odatdagidek, 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- Matndagi gap o'qiladi, o'quvchi diqqat bilan eshitadi.
- Matn o'qiladi, o'quvchi yozadi
- Matndagi gap o'qiladi, o'quvchi yozganlarini tekshirib oladi.

3-bosqich. Nazorat topshiriqlari kompyuter yordamida tekshiriladi. Buning uchun dasturning asboblari panelida joylashgan "Tekshirish" tugmasi yordamida buyruq beriladi. O'quvchi yozgan elektron topshiriqlar imloviy xatolar qizil rang bilan ko'rsatiladi, imloviy va ishoraviy xatolar soni matn ostida "xatolar

statistikasi” sifatida havola qilinadi. Shunga ko‘ra o‘quvchi yozgan mashqlari baholanadi.

4-bosqich. Ijobiy natijalarga erisha olmagan o‘quvchilarga topshiriqlarni qayta topshirish imkoni berilib, bir vaqtning o‘zida xatolar ustida ishlashga erishiladi.

Test, topshiriq, mashq, nazorat diktantlari olishning bunday zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etilishi an’anaviy pedagogik texnologiyalardan quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

Kompyuter texnologiyalari yordamida tashkil etilgan darslarni amalga oshirish orqali faqat bir qator imloviy savodxonlik ko‘nikmasigina emas, balki ravon og‘zaki nutqni tushunishga ham ma’lum darajada erishiladi.⁴⁵

Axborot uzatishning yangi interaktiv usuli yordamida darslarni tashkil qilish, uni tekshirish va xatolar ustida ishlash jarayonida kam vaqt sarflanishiga qaramay ko‘proq samaraga erishish mumkin.

Mazkur mashqlar jarayoni nafaqat dars soatlarida, balki istalgan vaqtda o‘quvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bu esa o‘quvchining o‘z ustida ishlashga, undagi interaktiv faollikning o‘shishiga qulay imkon yaratadi.

Bu jarayonda o‘qituvchi boshqaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi, o‘quvchi esa faol ishtirokchiga aylanadi, o‘qituvchi >kompyuter>o‘quvchi uchligining uzviy aloqadorligini ta’minlaydi.⁴⁶

Bob yuzasidan xulosalar

An’anaviy ta’lim bilan bir qatorda internet maydonida ham yangi yo‘nalishlar vujudga keldi. Yangidan yangi o‘qitish usullarini ommaga uzatish bo‘yicha elektron darsliklar faoliyati rivojlandi. Erkin so‘z va erkin fikr bildirish, darslardagi muammolarni o‘rganish, dolzarb mavzularni omma e’tiboriga havola

⁴⁵ To‘xliyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 yil, 9-bet.

⁴⁶ Tyschenko O.B. Kompyuterni o‘rganishning yangi vositalari - elektron darslik // o‘quv jarayonidagi kompyuterlar, 1999 y., 10-son.

etishda internet saytlari hamda elektron darsliklar an'anaviy darsliklardan tezkorlik bo'yicha ancha ilgari ketdi. Joriy imkoniyatlarni yanada kengaytirish masalasida xorij tajribasiga yuzlansak, turli mavzular multimediyaviy materiallar ko'rinishida uzatilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bugun bizdagi auditoriya ancha zamonaviy, xususan, yosh avlod ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Demak, auditoriya o'zgargan. Elektron olamini tushunadigan auditoriyaning esa talabini qondirish oson emas. Shu bois ham, onlayn nashrlar xorij tajribasiga yuzlanib, yangi multimediyaviy mahsulotlar tayyorlashlari zarur.

III bob. Adabiy til me'yorlarini o'qitish ishlarini samaraliroq qilish uchun tajriba sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish natijalari

3.1-§. Interfaol metodlardan foydalanish orqali adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish jarayonini faollashtirish usullari.

Interfaol so'zi bizning pedagogik faoliyatimizda - o'qituvchi va o'quvchilarni o'zaro hamkorligi negizida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda fikr-mulohaza yuritish, mustaqil fikrlash, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish demakdir. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu (axborot) o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondoshiladi. O'qituvchi faqat yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi.

Har bir dars pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etishi, zamonaviy pedagogik tajribadan foydalanishi va metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvofiqlashtirish demakdir. Natijada o'quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatining yuqori darajasini yaratishga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit holda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishni rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

O'qitish faoliyatining har qanday aktida har doim bir nechta metodlar chog'ishtiriladi, ular pedogog va o'quvchining bir xildagi o'zaro harakatlarini turli

tomondan tavsiflangan holda bir-biri bilan singishib ketadi, chunki o‘qitish metodlari maqsadga muvofiqli va mazmunli faoliyatdan tashqarida mavjud emas. Bunday paytda faqat og‘zaki, yoki faqat izlanuvchan, yoki faqat deduktiv metod qo‘llaniladi, deyish mumkin emas. Aslida bu metodlar o‘qitishning muayyan aktida jamuljam chog‘ishtiriladi va agar, garchi, biz hozirgi holatda muayyan metodni qo‘llash to‘g‘risida gapirar ekanmiz, bu-birinchi navbatda (boshqa metodlar yordamida) o‘qitishning hozirgi bosqichi uchun ustun bo‘lgan didaktik vazifalarni yechadi, degan fikrni anglatadi.

Masalan: mavzu mazmunining imkoniyatlarini hisobga olib bosh vazifa o‘quv-bilish faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘qishda mustaqillikni rivojlantirish bo‘lsa, unda biz birinchi galda boshqa metodlar yordamida joriy etiladigan evristik (izlanuvchanlik) metodlarini qo‘llaymiz.

Interfaol metod nechog‘lik o‘qitishning muayyan aktini tavsiflasa, u shunchalik ko‘p o‘qitish samarasini ta‘minlaydi. Masalan, pedagog asosiy metod sifatida “munozara”ni tanlaydi va uni o‘tkazish mantiqini quradi, shuningdek munozara davomida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun “aqliy hujum”⁴⁷ dan foydalanadi, bu esa kutilgan samarani beradi. Interfaol o‘qitish metodlarlarini tanlashning keyingi muhim sharti ularni eng maqbul chog‘ishtirish mezonlarini hisobga olishni taqazo etadi.

Interfaol metodlarni tanlash mezonlari ularning ta‘lim-tarbiya rivojlantirish masalalarini yechishga yuqori yo‘nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarning u yoki bu doiradagi vazifalarini yechish imkoniyatlarini baholash yo‘li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o‘zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir.

1. Interfaol metodlarning barchasi o‘quvchilarning fikrlash mustaqilligini ta‘minlaydi, o‘qitishda bir qoliplikni va andozalikni yo‘qotadi, o‘quv materiallarini egallashda nazariy bilimlarning rolini birmuncha oshiradi.

⁴⁷ https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_411_20210422.pdf

2. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta'lim mazmuni xususiyatlariga mos kelishidir. Metod mazmunining harakatlanish shakli (Gegel) sifatida ham aniqlanadi. Bir metod yordamida mavzuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijodiy o'zlashtirishga imkon to'g'adiradi, uchinchi - bu mazmun uchun yaroqsiz bo'lishi mumkin.

Ushbu chizma har bir interfaol metodning muayyan mazmun turini o'zlashtirishdagi rolini ko'rsatadi (2.1-jadval).

Interfaol metodlarning o'quvchi shaxs sifatlariga ta'siri. 2.1-jadval

№	Interfaol o'qitish metodlari	Shakllantirish			Rivojlantirish				
		Nazariy bilimlarni	Faktik bilimlarni	Aqliy - mehnat ko'nik - malar -ni	Abs-trakt tafakurni	Ko'r-gazma-li tim-solli tafakurni	Tafakur-lash mustaqilligini	Nut - qi ni	Bi-lish - ga qiz i- qis h- ni
1	Aqliy hujum	+	+	-	+	-	+	+	-
2	Ajurli arra	+	+	+	+	+	+	+	+
3	Munozara	+	+	-	+	-	+	+	+
4	O'z o'rningni-	-	+	-	+	+	+	-	-

	top								
5	Debat	+	+	+	+!	+	+	+	+
6	Menyu	+	+	+	+	+	+	-	+
7	Tanqidiy Fikrlash	+!	+	+!	+!	-	+	+	+!
8	Kichik guruhlarda ishlash	+	+	+!	-	+	+	+	+
9	Klaster	+	+	+!	+	+!	+	-	+
10	Sinkveyn	+!	+	+	+	+	+!	-	+

Izoh: +!- muammoni birmuncha muvaffaqiyatli yechadi; +- muammoni asosli yechadi; +-- muammoni birmuncha zaif yechadi; -- muammoni yecha olmaydi.

Interfaol metodlarning ro'yobga chiqarish shakllari joriy etish vositalari kabi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, aqliy hujum, tanqidiy fikrlash, ajurli arra, menyular og'zaki so'z, darslik o'qish, kino yoki televidenie, boshqa tasviriy vositalar orqali amalga oshirilsa, klaster, sinkveyn, o'z o'ringni top kabi metodlar o'qituvchining oldindan ko'rsatib bergan faoliyat usullarini takrorlashini taqazo etadi.

3. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning o'quvchilar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishidir, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarning birligini ta'minlashdir. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, real o'quv imkoniyatlarini o'rganishda quyidagi shartlarni aniqlashtirish kerak bo'ladi: o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga tayyorgarligi (o'quv ishlarini rejalashtirish, mashg'ulot maqsadi va vazifalarini to'liq belgilab olish ko'nikmasi, o'z-o'zini nazorat, teskari aloqa o'rnatish va qo'shimcha didaktik jarayonni qurish); o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga tayyorgarligi

(fikrlash mustaqilligi, o'quv materialidagi asosiy g'oyani ilg'ab olish ko'nikmasi, topshiriq shartlarini belgilash va uni yechish metodlarini mustaqil topish ko'nikmasi); o'qishga munosabat va boshqalar.

Sinf tayyorgarligining yuqori darajasi interfaol metodlarning ulushini birmuncha oshirishni, reproduktiv vositalarni kamaytirishni talab etadi.

4. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlari mos kelishi lozim. Darsning didaktik maqsadlariga turli metodlardan, ularning o'zaro birikuvidan oqilona foydalanish evaziga erishish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, metodlar kompensatorlik (biri yo'l qo'ygan kamchilik boshqasi evaziga yo'qotiladi, ya'ni me'yorlanadi) imkoniyatlariga ega.

5. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan yana biri – ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O'qitishning yalpi (frontal), guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Masalan, debat metodi ikki o'quvchi (yoki ikki guruhcha) o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujum"da guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtiroki zarur bo'ladi. Shuningdek, bu mezon mavzuning murakkablik darajasiga mos holda shakl va metodning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga yo'naltiriladi.

6. Interfaol metodlarning pedagogik texnologiya prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi.

Interfaol metodlarni tanlash va muayyan o'qitish texnologiyasini mavzu maqsadiga muvofiq tarzda konstruksiyalash quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. O'rganilayotgan o'quv materiallarining mazmunini tahlil qilish. Ta'lim mazmuni elementi sifatida o'quv materialining sifatli xususiyatlari aniqlanadi (bilimlar, faoliyati amalga oshirish usullari-ko'nikma va mavjud ijodiyot tajribasi).

Ta'lim mazmunining har bir elementi uchun o'zlashtirishning alohida faoliyat turi mos keladi, binobarin, o'qitish metodlarining muayyan guruhi ham tanlanadi.

O'quv axborotining mantiqiy tuzilmasi xarakteri (mantiqiy –isbotli, hayajonli-timsolli, aniq-harakatli xarakteri) belgilab olinadi.

Biluv topshiriqlarining mazmunli jamlamasini ajratish maqsadida materialning ichki yoʻnalishlari, tomonlari, tafovutlari tahlil qilinadi.

2. Oʻrganilayotgan materialning oʻquvchilar uchun yangilik darajasini va bilimlarni egallashda ularning mustaqillik darajasini vaqt omili va variantlarni mazmuni tahlillash asosida ajratilgan biluv natijalarini maqbullashtirish masalalarini hisobga olib aniqlash.

3. Taʼlimning umumiy maqsadidan kelib chiqib oʻqitishning ayni bosqichidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalalarni yechish zaruratini hisobga olgan holda ajratilgan variant (topshiriq)larni tahlillash va baholash.

4. Umumiy masalalarni yechishda metodlar va usullarni bir-biriga qoʻshilish ketma-ketligini muvofiqlashtirish.

Shunday qilib, interfaol metodlarni saralash mezonlaridan yana biri-bu taʼlim oluvchilar faoliyati xarakterini murakkablashtirish va ularning mustaqilligini asta-sekin oshirishdir. Biroq har bir yangi savollarni, mavzu va boʻlimlarni oʻrganishda metodlarni qoʻllashning murakkabligi darajasi boʻyicha birmuncha soddasiga qaytish mumkin.

“**Ajurli arra**” texnologiyas tuzilish jihatdan oʻzida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi.

1. Topshiriqni boʻlish. Topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (yoki mavzularga) kiritiladi.

2. Ekspert guruhlar. Qoʻlida bir mavzuga oid oʻquv topshiriqlari mavjud boʻlgan talablar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga oʻrgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhga birlashadilar.

3. Birlamchi guruhlar. Talabalar oʻzlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda oʻrganganlarini oʻqitishadi.

“**Ajurli arra**” **metodi** mohiyatiga aniqlik kiritish uchun baʼzi bir tavsiyalarni yoritish lozim.

1. O‘qitish jarayoniga bu tarzda yondoshilganda o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o‘zlashtirishlariga imkon yaratiladi.

2. U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun o‘quvchilarga boshlang‘ich axborotlarni uzatish zaruriyati tug‘ilsa, ma’ruza o‘rnini bosa oladigan samarali instrumentariy hisoblanadi.

3. O‘qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo‘yicha o‘quvchilarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo‘ljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo‘shimcha tarzda gazeta, jurnal, maqolalardan materiallar bo‘lishi kerak.

4. Har bir o‘quvchi 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab ”o‘z uyi” (birlamchi) guruhiga, keyin esa “ekspert guruhiga birlashib, o‘quv elementlarini mustaqil o‘rganishadi. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun o‘quvchilar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar bir xil rangdagi qog‘ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog‘ozning biron-bir burchagi bo‘yalgani ma’qul⁴⁸.

5. Har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha o‘quvchi (o‘quvchilarning soniga qarab) bo‘lishi mumkin. Har bir o‘quvchi “o‘z uyi”dagilarni qayta uchrashish joyini aniqlab olishi kerak.

6. O‘qituvchi o‘quvchilarni “rangli” topshiriqlar asosida guruhga birlashtirishni taklif etadi va ular alohida mavzular bo‘yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, “qizil”larni auditoriya xonasi oxirida, “ko‘k”larni esa maktab yo‘lakchasida uchrashish belgilanadi. Har bir ekspert guruhda 3 tadan kam o‘quvchi bo‘lmasligi kerak.

7. Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli xil materiallar to‘plamini olishlari va ularni o‘qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo‘yicha ekspertga aylanishi lozim, o‘quv materiallari to‘plamini

⁴⁸ Adabiyot o‘qitishning nazariy va pedagogik asoslari. Badiiy matn tahlilida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish strategiyalari. <https://fayllar.org/adabiyot-oqitishning-nazariy-va-pedagogik-asoslari-badiiy-matn.html>

olishlari va ularni o'qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo'yicha "ekspert" bo'lishi uchun o'quvchilarda vaqt yetarli bo'lishi kerak. Bu uchun agar materiallar murakkab va katta bo'lsa, ehtimol, bir dars to'liq talab qilinadi⁴⁹.

8. O'quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

-fayldagi materiallarni diqqat bilan o'rganing va muhokama qiling;

-bir-biringizdan so'rang va o'quv materiallarini har biringiz tushunib olganingizga ishonch hosil qiling;

-o'z "uyingiz" guruhini o'qitish zarurligini hisobga olib, materiallarning muhim o'quv elementlariga e'tiborni qarating:

9. O'quvchilarning o'z "uylariga" qaytishlarini iltimos qiling. Har o'z "uyi"-guruhiga ajborot beradi. Shaksiz, "uy" guruhida ekspert guruhlaridan bittadan o'quvchi bo'lishi shart, o'quvchi o'rganib kelgan materiallarni o'z guruhi o'quvchilariga o'rgatish javobgarligini bo'yniga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.

10. O'quvchilar bir-birlaridan axborotlarni o'rganishib bo'lishgach, o'qituvchi oldindan rejalashtirilgan faoliyat turini o'tkazishi mumkin.

Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz "shturm" qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganadilar.

"Munozara" texnologiyasini o'tkazish metodikasi

1. Munozara olib boruvchi-boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokozo) adabiy til normalari bo'yicha muammoni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

⁴⁹ Adabiyot o'qitishning nazariy va pedagogik asoslari. Badiiy matn tahlilida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish strategilayalari. <https://fayllar.org/adabiyot-oqitishning-nazariy-va-pedagogik-asoslari-badiiy-matn.html>

-“hujum”dan ko‘zlangan maqsad –muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko‘proq taklif etish;

-o‘z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan fikrlar umumiy fikrlarga zid bo‘lsakda, hech biri rad etilmaydi;

-boshqa ishtirokchilar g‘oyalarini ham rivojlantiring;

Taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug‘ullanasiz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va yuzaga kelgan barcha g‘oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so‘zga chiquvchilar tartibi o‘rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o‘z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi. Agar biron bir kishi tomonidan “aqliy hujum”ni o‘tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g‘oyalar paydo bo‘lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri ”charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus e’lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. “Aqliy hujum” ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirilgan g‘oyalarini mustahkamlaydilar, g‘oyalar guruh bo‘yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishadilar va natijada o‘rtaga qo‘yilgan muammoning yechimiga tegishli bo‘lgan fikrlargina ajratib olinadi. Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

Bu metoddan fonetik me‘yorlarni va morfologik me‘yorlarni o‘qitishda samarali foydalanish mumkin.

“Kichik guruhlarda ishlash” texnologiyasidan foydalanish usullari

Kichik guruhlarda ishlash o‘quvchilarning darsda faolligini ta’minlaydi. Har bir o‘quvchi uchun bahsga kirishish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar bir-biridan sinfda o‘rganish imkonini beradi, boshqalar fikrini qadrlashga o‘rgatadi.

Qo‘llanish usuli

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o‘quvchilar uni o‘rganish uchun ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari zarur bo‘ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. O‘quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo‘yicha ba‘zi bilim, ko‘nikma va malakalarini oldindan egallagan bo‘lishlari kerak⁵⁰.

3. Guruhlarni shakllantirish. Odatda har bir guruhda 3-5 o‘quvchi bo‘ladi, (ehtimol, kam yoki ko‘p bo‘lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishidan guruh tuzilgani ma‘qul. Guruh o‘lchovi masalaning muhimligi, sinfdagi o‘quvchilar soni, o‘quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o‘zaro harakatiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Eng yaxshisi, 2-3 “getrogen”guruh tashkil etishdir. (jinsi, o‘zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash o‘quvchilar o‘rtasida vazifalar aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o‘quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spier(sardor) rolini o‘taydi va hakazo). Sinfni guruhlarga ajratish, xohish bo‘yicha yoki hisob bo‘yicha amalga oshiriladi.

“Muammo” texnologiyasi va undan foydalanish shart-sharoitlari

Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchilarga o‘quv fanining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala vaziyatlarining yechimini to‘g‘ri topishlariga o‘rgatish, ularda muammo mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammolar yechishning ba‘zi usullari bilan tanishtirish va uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini, muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatadi⁵¹.

Mashg‘ulotning o‘tkazish tartibi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni o‘rinlariga joylashtirilgandan so‘ng, mashg‘ulotni talablarini va o‘tkazish tartib-qoidalari

⁵⁰ Innovatsion texnologiyalarni nazariy-amaliy asoslari. <https://kompy.info/buxoro-davlat-universiteti-v66.html?page=3>

⁵¹ Homo loquens: язык и культура. Диалог культур в условиях открытого мира. <http://elibrary.ru/item.asp?id=42527961>

tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich o'quvchilardan maksimum diqqat-e'tibor talab qilinishi, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish o'yg'otadi. Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg'ulot jarayoni boshlanadi⁵²:

O'quvchilar tomonidan mashg'ulot uchun tayyorlangan videolavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarga belgilab qo'yish (agar kinofilm ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa, uholda o'qituvchi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, afisha yoki bir muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o'quv materialidan foydalanish mumkin):

- har bir guruh a'zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki formatdagi qog'ozga flomaster bilan yozib chiqiladi;

- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlagan ishni guruh vakillari tomonidan o'qib eshittiriladi;

- o'qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi;

- tarqatilgan qog'ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;

- o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;

- o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi⁵³ (2.2-jadval).

2.2-jadval

Adabiy til normalariga amal qilish muammosi

⁵² https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_1718_20210831.pdf

⁵³ https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_1718_20210831.pdf

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish va sizning harakatlaringiz
Adabiy til normalariga amal qilish	Adabiy til normalariga rioya qilishda e'tiborning kamligi	Adabiy til normalariga rioya qilishga oid tadbirlar o'tkazish

- yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir o'quvchi bajargan tahliliy ishini barchaga o'qib eshittiradi;

- muammolar va ularning yechimi bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;

-himoyadan so'ng o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlarga qiziqarli ishlari uchun minnaddorlik bildiradi⁵⁴.

Bunday texnologiya bilan o'tkazilgan mashg'ulot natijasida o'quvchilar qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanishi kerakligini, keyin esa ularga zarur bo'lgan uslub va usullarni tanlashi hamda o'z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar⁵⁵.

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning faol bilish faoliyatini ta'minlaydi, ularni mustaqil bilish jarayonini tashkil etish metodikasi bilan qurollantiradi va bu o'rinda ta'limni tashkil etishning turli shakllaridan (jumladan, ommaviy, guruh va individual shakllaridan) unumli foydalanadi. O'qituvchilar o'quv ishlarini tashkil etish bilan birga o'quvchilar o'rtasida o'zaro tushunish, yordam, hamkorlik va sinf jamoasini shakllantirish va rivojlantirish kabi sifatlarni ham ko'zda tutadilar.

Jamoaviy ishlar darsda o'quvchilarning o'qituvchi va butun sinf bilan munosabatlarini o'zaro ishonch asosida yo'lga qo'yishga yordam beradi. Bulardan tashqari, ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik vazifalarini hal etishga, bilishga

⁵⁴ Homo loquens: язык и культура. Диалог культур в условиях открытого мира.
<http://elibrary.ru/item.asp?id=42527961>

⁵⁵ Texnologiyaning maqsadi - Kimyo fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni turli shakl va usullar. <http://uz.denemetr.com/docs/288/index-38961.html?page=3>

bo'lgan havas, ishonchni oshirish, o'qitish jarayonini faollashtiruvchi turli metod va usullarni qo'llash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ta'limni tashkil etishning ushbu ko'rinishi har bir o'quvchining rivojlanish darajasini, bilish imkoniyatlari va qiziqishlarini, o'ziga xos tomonlarini yetarli darajada hisobga ololmaydi. Har bir o'quvchining bilish faoliyati samaradorligini maksimal oshirish uchun ularning o'ziga xosligini hisobga olish kerak.

Masalan, o'qituvchi dars vaqtida suhbat metodidan foydalanib, sinf oldiga savollarni qo'yib, uni tushuntirib, izohlab bergach, sinf jamoasining fikrini va, shu bilan birga, har bir o'quvchining o'ziga xosligini, uning imkoniyatlarini ham hisobga oladi. Ommaviy o'qitish shunday tashkil etiladiki, bu o'rinda o'quv jarayonida har bir o'quvchining u yoki bu savolga munosabati, hal etish uslubi, fikrni rivojlantirish imkoniyatlari hisobga olinadi. Bu esa o'quv jarayoniga o'zgartirishlar kiritish, metod va mazmun korreksiyasiga e'tibor berish imkonini beradi.

3.2-§. Dunyo mamlakatlari tajribalari asosida adabiy til normalarini o'zlashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish metodikalari

Dunyo mamlakatlarida adabiy til ta'limida uni o'qitishning samarali vositalarni, tashkiliy shakllarni ishlab chiqish doimiy dolzarb vazifa sifatida tadqiq etilib kelinmoqda.

Tan olaylik: qadim madrasalarda qanday fanlar o'qitilgan, mudarrislar toliblarga ta'lim berishning qanday usullaridan foydalanganlariga deyarli e'tibor bermaymiz, ilmiy jihatdan tahlil qilmaymiz. Achinarlisi shundaki, bu tajribalarning ko'pi uzoq yillardan beri g'arb ta'lim tizimini bezab keladi. Mana, madrasalarda nimalar o'qitilgan:

Usuli hijoiya (savtiya) — bo'g'inga bo'lib o'qish.

Ilmi sharh — tafsir.

Ilmi tahlil — tahlil, sharh, tavsif masalasi.

Ilmi munozara — munozara, bahs, munosabat ifodasi.

Ilmi qiroat — ohang va soʻz talaffuzi.

Ilmi fasohat (ilmi balogʻa) — soʻz va iboralarni oʻrinli qoʻllash.

Ilmi bayon — nozik maʼnolarni bayon qilish mahorati.

Ilmi gʻariba — kam soʻz bilan keng maʼnoni ifodalash mahorati.

Ilmi maoniy — biror voqea yoki hodisaning mohiyatini ochib berish.

Ilmi nasr va insho — yozma ish uslubi, maktub, yozuv savodxonligi.

Ilmi muhozirot — hozirjavoblik, zukkolik, quvnoqlik.

Ilmi mantiq — soʻzlar zamiridagi maʼnolarni chuqur anglash.

Ilmi kalom — naqliy masalani aqliy idrok etish, dalillash, isbot.

Koʻrinib turibdiki, bu usullardan bugun oʻrta maktablarning yuqori sinflarida, yangidan tashkil etilgan ijod maktablarida va oliy oʻquv yurtlarining ijodiy fakultetlarida tanlov predmetlari sifatida foydalanish mumkin. Ajablanarlisi shundaki, bu usullarning nomlarida bugun adabiyotimizda, xususan, milliy matbuotimiz faoliyatida mavjud boʻlgan jamiki qusurlar oʻz ifodasini topgan.

3.3-§. Adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish borasida pedagogik tajriba - sinov ishlarining samadorlik darajasi

Maktab oʻquvchilarida adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish borasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarimiz jarayonlarida dastavval oʻqituvchilar faoliyati oʻrganildi. Chunki, dars jarayonida oʻqituvchi oʻquvchilarning faol bilish faoliyatini taʼminlaydi, ularni mustaqil bilish jarayonini tashkil etish metodikasi bilan qurollantiradi va bu oʻrinda taʼlimni tashkil etishning turli shakllaridan (jumladan, ommaviy, guruh va individual shakllaridan) unumli foydalanadi. Oʻqituvchilar oʻquv ishlarini tashkil etish bilan birga oʻquvchilar oʻrtasida oʻzaro tushunish, yordam, hamkorlik va sinf jamoasini shakllantirish va rivojlantirish kabi sifatlarni ham koʻzda tutadilar⁵⁶.

⁵⁶ Homo loquens: язык и культура. Диалог культур в условиях открытого мира
<http://elibrary.ru/item.asp?id=42527961>

Pedagogik tajriba-sinov ishlari ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning asosiy qismi bo'lib, uch bosqichda: birinchi ta'kidlovchi, ikkinchi shakllantiruvchi va uchinchi yakunlovchi (2022-2023y.y.) bosqichlarda tashkil etildi.

Maktab o'quvchilarida adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish metodikasining samara berishini aniqlash maqsadida tajriba natijalari tahlili va interpretatsiyasi o'tkazildi.

Metodika samaradorligi o'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan yangicha tafakkur yuritish tarzini takomillashtirish bilan tavsiflanadi. Metodikaning miqdoriy hamda sifatiy tahlili uning samaradorligini belgilaydi.

Keng qamrovli pedagogik tajriba-sinov ishlari 2022-2022 yillarda Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on shahridagi 33-sonli maktablarining yuqori sinflarida o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilar tajriba va nazorat sinflariga ajratildi.

Umumiy hisobda 238 nafar o'quvchi tajriba-sinov ishlarida qatnashdi. Natijalar statistik tahlildan o'tkazildi. Tadqiqotimizda usullarning samarali tomonlari o'rganilib, ijobiy natijalar berdi.

Tajriba-sinov natijalari tadqiqot ishi farazini ilgari surishga va asoslashga zamin yaratdi. Kuzatish jarayonida bayon qilingan nazariy masalalar yuqori sinf o'qituvchisi va o'quvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi:

1. O'quvchilarida adabiy til me'yorlarini o'zlashtirishni yuksaltirishda o'quvchilar bilimi sifati va samaradorligiga ta'siri qanday?
2. O'quvchilarning til me'yorlarini o'zlashtirishiga doir amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalari shakllanishiga uning ta'siri nimalardan iborat?
3. O'quvchilarda erkin mustaqil fikr yuritishi va ijodiy fazilatlarini namoyon qilishida qanday samarali metodlarning ahamiyatini izohlaysiz?
4. O'quvchilarda adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish imkoniyatlarida yuzaga keladigan salbiy oqibatlardan himoyalovchi ko'nikmalarni tarkib toptirishda qanday qiyinchiliklar mavjud?

So'rovnomaning bunday mazmundagi savollari ta'limiy o'zlashtirish imkoniyatini rivojlantirishning zaruriy sharti sanaladi. Rejalashtirilgan so'rovnoma maqsadi o'qituvchilarda ta'limiy o'zlashtirish imkoniyatini takomillashtirishga oid tasavvur va tushunchalarining, tajribalarining mavjud holati, mazkur jarayonning takomillashtirish imkoniyatlari, pedagogik shart-sharoitlari, omillarini o'rganishga qaratildi.

Aniqlashtiruvchi tajriba-sinov natijasida o'quvchilar uchun o'rinli bo'lgan mavzular tanlandi. Tajriba-sinov natijalari matematik statistika metodidan foydalanib, qayta ishlandi. Bunda tajriba va nazorat sinflarida o'qitish taqqoslandi.

Shu bilan birga, ta'limni tashkil etishning ushbu ko'rinishi har bir o'quvchining rivojlanish darajasini, bilish imkoniyatlari va qiziqishlarini, o'ziga xos tomonlarini yetarli darajada hisobga ololmaydi. Har bir o'quvchining bilish faoliyati samaradorligini maksimal oshirish uchun ularning o'ziga xosligini hisobga olish kerak.

Masalan, o'qituvchi dars vaqtida suhbat metodidan foydalanib, sinf oldiga savollarni qo'yib, uni tushuntirib, izohlab bergach, sinf jamoasining fikrini va har bir o'quvchining o'ziga xosligini, uning imkoniyatlarini ham hisobga oladi. Ommaviy o'qitish shunday tashkil etiladiki, bu o'rinda o'quv jarayonida har bir o'quvchining u yoki bu savolga munosabati, hal etish uslubi, fikrni rivojlantirish imkoniyatlari hisobga olinadi. Bu esa o'quv jarayoniga o'zgartirishlar kiritish, metod va mazmun korreksiyasiga e'tibor berish imkonini beradi.

Umuman olganda, darsda o'quvchilar bilan ishlashning qaysi shaklidan foydalanish o'quv predmeti, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'qitish metodlari, sinf va ayrim o'quvchilarning o'ziga xosligidan kelib chiqadi. O'quv jarayonining muvaffaqiyati hamma vaqt ham jarayon qatnashchilarining o'zaro munosabatlari qay darajada yo'lga qo'yilishi, boshqarilishiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarda tizimli yondashuvning savod o'rgatish jarayoniga ijobiy ta'sirini o'rganish maqsadida tajriba guruhidagi o'quvchilarning o'zlashtirishlaridagi ijobiy o'zgarishlar tahlil qilindi.


3.1-jadval

Tajriba-sinovdan oldin “Ona tili” fanidan olgan baholari

Ko‘rsatkichlar	Tajriba-sinovdan oldin				Tajriba-sinovdan keyin			
	nazorat guruhi		tajriba guruhi		nazorat guruhi		tajriba guruhi	
	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
3 baho	35	21%	37	14,5%	33	20%	21	8,2%
4 baho	109	65%	106	69,0%	110	65,5%	110	72,9%
5 baho	24	14%	27	16,5%	25	14,5%	39	18,8%

Biz tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarining adabiy til me‘yorlariga rioya qilish savodxonligini oshirish maqsadida ularning reyting baholarini tahlil qildik, tahlil natijalariga ko‘ra, 37 nafar (14,5%) o‘quvchilar “3” bahoga, 106 nafar (69,5%) o‘quvchilar “4” bahoga, 27 nafar (16,5%) o‘quvchilar “5” bahoga o‘qiganligi aniqlandi. Ushbu o‘quvchilarning savodxonligini oshirish uchun rivojlantiruvchi trening mashg‘ulotlarini olib bordik va quyidagi natijaga erishdik.

Rivojlantiruvchi mashg‘ulotlardan so‘ng “5” bahoga talabgor o‘quvchilar soni 2,3% ortganligini, “4” baho oluvchilar soni 3,9% ortganini kuzatishimiz mumkin. “3” baho oluvchilar soni 6,3% ga kamayganligini kuzatishimiz mumkin (3.1-rasm).




3.1-rasm. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Tadqiqotimizda olingan metodika shkalalarining aksariyat qismi normal taqsimlanish qonuniga mos kelganligi sababli, Pirson mezonidan foydalandik. Bunda biz "Bilish imkoniyatlariga ta'sir etib, samaradorlikka erishish" metodikasining (instrumental bilish) shkalalarini o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarini o'rganishga harakat qildik.

3.2-jadval

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarning shakllanganlik darajasini aniqlashning tajriba boshi va yakunidagi samaradorlik darajasi

Tajriba-sinov bosqichlari	Sinflar	O' quvchilarning umumiy soni	Tajriba sinflari				Nazorat sinflari			
			O' quvchilar soni	«A» guruhiga ki-ruvchilo' quvchilar	«B» guruhiga ki-ruvchilo' quvchilar	«D» guruhiga ki-ruvchilo' quvchilar	O' quvchilar soni	«A» guruhiga ki-ruvchilo' quvchilar	«B» guruhiga ki-ruvchilo' quvchilar	«D» guruhiga ki-ruvchilo' quvchilar
Tajriba boshida	5-sinf		33	11	10	12	36	12	13	11
	6-sinf		33	12	11	10	29	10	9	10
	7-sinf		27	9	10	8	28	9	10	9
	8-sinf		25	8	8	9	27	9	8	10
	Jami	238	118	40	39	39	120	40	40	40
Tajriba yakunida	5-sinf		33	11	10	12	36	12	13	11
	6-sinf		33	12	11	10	29	10	9	10
	7-sinf		27	9	10	8	28	9	10	9
	8-sinf		25	8	8	9	27	9	8	10
	Jami	238	118	40	39	39	120	40	40	40



3.2-rasm. O'quvchilarning tajriba boshi va yakunida o'zlashtirish diagrammasi

Umuniy xulosalar

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. O'zbek adabiy tilining qanchalik me'yorga keltirilganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o'zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Kelajakda o'zbek tilida uning barcha sathlari bo'yicha me'yoriy holatlar aniqlangan va ularning natijasi o'laroq me'yoriy fonetika, me'yoriy frazeologiya, me'yoriy leksikologiya, me'yoriy grammatika, me'yoriy stilistika singari yo'nalishlar tadqiq etilishi va ularda til faktlari vazifaviy-uslubiy jihatdan tahlil qilinishi lozim.

2. Nutqiy jarayonda so'zlarning o'zaro birikuvini tashkil qiluvchi so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar va ularning ayrim ko'makchilar bilan sinonimiyasi o'zbek tilining fikrni eng nozik jihatlari bilan ifoda etishdagi imkoniyatlari naqadar kengligidan dalolat beradi. Binobarin, ular uslubshunoslik uchun qimmatli material bera oladi. Masalan, ularning o'zaro almashinib qo'llanishiga me'yor nuqtai nazardan qaraganimizda esa grammatik me'yor nomuvofiqligi uslubiy me'yor buzilishlariga qaraganda nisbatan kam diqqatni tortadi.

3. Sintaktik me'yor doirasida tildan foydalanuvchilar uchun to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, maqsadga muvofiqlik va ta'sirchanlik kabi nutqiy lingvostilistik omillar doirasida amal qilishi zarur bo'lgan jihatlar anchagina. Bu o'rinda ularning ayrimlari sanab o'tildi, xolos. Ammo o'zbek tili grammatikasi qoidalarini, ularni amalda qo'llashni boshqa kurslarda ham o'rganish davomida talabalar ana shu aytib o'tilgan masalalarga e'tiborni kuchaytirsalar, sintaktik me'yor muammolarini tushunish yanada osonlashadi.

4. Ushbu ilmiy ishini bajarish davomida axborotlarni elektron usulda almashish iqtisodiy tejamkor va o'zlashtirishga qulay ekanligini, ayniqsa, elektron dasliklar o'quvchilarga o'qish jarayonida eng qulay ma'lumotlar to'plami bo'lishi mumkinligi yoritildi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimining

jamiyatdagi roli va ahamiyati qay darajada oshganligiga barchamiz guvohmiz. An'anaviy ta'lim bilan bir qatorda internet maydonida ham yangi yo'nalishlar vujudga keldi. Yangidan yangi o'qitish usullarini ommaga uzatish bo'yicha elektron darsliklar faoliyati rivojlandi. Erkin so'z va erkin fikr bildirish, darslardagi muammolarni o'rganish, dolzarb mavzularni omma e'tiboriga havola etishda internet saytlari hamda elektron darsliklar an'anaviy darsliklardan tezkorlik bo'yicha ancha ilgari ketdi. Joriy imkoniyatlarni yanada kengaytirish masalasida xorij tajribasiga yuzlansak, turli mavzular multimediyaviy materiallar ko'rinishida uzatilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bugun bizdagi auditoriya ancha zamonaviy, xususan, yosh avlod ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Demak, auditoriya o'zgargan. Elektron olamini tushunadigan auditoriyaning esa talabini qondirish oson emas. Shu bois ham, onlayn nashrlar xorij tajribasiga yuzlanib, yangi multimediyaviy mahsulotlar tayyorlashlari zarur. Bugungi kunda ko'plab saytlar matn va foto ko'rinishidagi materiallardan tashqari, audio, video formatdagi materiallarni muntazam ravishda berib boradi. Ammo hamon auditoriyaga tanlov imkoniyatini beradigan materiallar mavjud emas. Sababi esa, multimediyaviy mahsulotlar yaratish jarayoni ma'lum vaqtni talab etadi, vaqtdan yutish uchun esa onlayn-nashrga multimediyaviy jamoa yetishmaydi. Aynan multimediyaviy jamoani shakllantirish orqali ta'lim tizimida multimediyaviy materiallar tayyorlash, zamonaviy auditoriyaga zamonaviy formatdagi mahsulotlarni yetkazish zarurati paydo bo'layotganini ko'rishimiz mumkin.

5. Hozirgi vaqtda zamonaviy ilm-fan jadal rivojlanmoqda va insonning kundalik hayotiga oid axborot-kommunikatsiya tadqiqotlarining so'nggi yutuqlarini taqdim etmoqda. Buning asosiy yo'nalishi: hayotni yengillashtirish va ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirishga hissa qo'shish. Insoniyatning zamonaviy rivojlanish davri axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanishi mumkin.

6. Qo'yilgan muammolarni hal etishda an'anaviy, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanildi. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish

imkoniyatlarini qo'llashga doir usul va vositalar tanlash prinsiplari va ularga bo'lgan didaktik talablar ishlab chiqildi.

7. Tizimli-dasturiy yondashuvdan foydalanib, ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning adabiy normalarni o'zlashtirishi imkoniyatlarini takomillashtirish didaktikaning barcha prinsiplariga ko'ra aniqlandi.

8. Ta'limiy o'zlashtirishga doir usul va vositalar tanlandi va uni savod o'rgatish darslarida qo'llash metodikasi ishlab chiqildi; birinchidan, o'qitish sifati va samaradorligini oshirishda; ikkinchidan, mashg'ulotlarda qaysi an'anaviy, zamonaviy metodlardan hamda shakllardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘UXATI

I. Normativ-huquqiy adabiyotlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – T.: 2020
2. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi pf-5850-sonli prezident farmoni, 2020-yil 21-oktabr.to‘g‘risida”gi pf-5850-sonli prezident farmoni, 2020-yil 21-oktabr.

II. Imiy-nazariy adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек миллий адабий тили ва уни ўрганишга оид масалалар // «Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплами. – Тошкент, 1973.
2. Абдурахмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, №6.
3. Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Фан, 1971.
4. Асқарова М. Республика мактабларида она тили ўқитиш ва нутқ маданияти // «Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплами. - Тошкент: Фан, 1973.
5. Баскаков Н.А. Структурныйе и функциональныйе стилистическийе модификации в современных тюркских языках. // Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968.
6. Бегматов Е. Бобойева, Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983.
7. Бегматов Е. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // Нутқ маданиятига оид масалалар тўплами. – Тошкент: Фан, 1973.

8. Бегматов Е. Ўзбек нутқи маданияти масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, № 4.
9. Гуломов А. Адабий тил нормалари // «Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплами. – Тошкент, 1973.
10. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг нутқ маданиятига оид масалалар //«Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплами. – Тошкент, 1973.
11. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби.-_Самарқанд: Зарафшон, 1992.
12. Кожина М.Н. Стилистика русского языка – М., 1983.
13. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 1995.
14. Маматов А.Е. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари.- Тошкент, 1991.
15. Муҳаммедов С. Ўзбек тили функционал стилларини белгилаш тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, №4.
16. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент, 1984.
17. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
18. Nematov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
19. Ўринбойев Б. Функционал услубият ва унинг моҳияти. – Тошкент: Фан, 1992.
20. Ўринбойев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. –Тошкент: Фан, 1975.
21. Ўринбойев Б., Ўринбойев Д. Ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент, 1991.
22. Ўзбек тили грамматикаси. 1 ва II томлар. – Тошкент, 1975, 1976.
23. Qilichyev E., Qilichyev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2001.

24. Қўчқортойев И. Адабий тилнинг стилистик табақаланиши ва нутқ маданияти // «Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплами. – Тошкент, 1973.
25. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975.
26. Қўнғуров Р. Олмош стилистикасига оид айрим мулоҳазалар// Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар. –Самарқанд, 1981.
27. Қўнғуров Р. Сифат стилистикаси // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. –Самарқанд, 1982.
28. Қўнғуров Р.Қ., Каримов С.А, Қурбонов Т.И. Ўзбек тилининг функционал стиллари. – Самарқанд, 1984.
29. Қурбонов Т.И. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг публицистик услуби. НД – Тошкент, 1987.
30. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. - Тошкент, 1978.
31. Розйентал Д.Е. Практическая стилистика русского языка. – М., 1974.
32. Садикова С. Стилистика глагола в современном узбекском литературном языке: Автореф. дис.... д-ра филол.наук.- _Тошкент, 1991.
33. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тилининг лексик нормалари // «Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплами - Тошкент: Фан, 1973.
34. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980.
35. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
36. Сулаймонов А. Тил стиллари ҳақида // Совет мактаби, 1964, №6.
37. Турсунов У., Ўринбойев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент, 1982.
38. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1995.
39. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1963.
40. Йефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М, 1961.

41. Tyschenko O.B. Kompyuterni o'rganishning yangi vositalari - elektron darslik // o'quv jarayonidagi kompyuterlar, 1999 y., 10-son.

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Rustamov A. Alisher Navoiy asarlari tilining fonetik va morfologik xususiyatlari: filol.fan.dokt.diss. –T., 1969.

IV. To'plam va jurnallardagi maqolalar

1. Hamrayeva H. O.Sharafiddinov asarlaridagi sintaktik birliklar. Ta'lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar. Ilmiy metodologik va ilmiy uslubiy jurnal. - Toshkent, 2008.
2. Rahmatov M. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida chun bog'lovchili gaplarning sintaktik xususiyatlari: filol.fan.nomz.diss. avtoref. –T., 2006.
3. Mengliyev B., Sayfullayeva R., Mamatov A. Milliy tilshunoslik mutaql rivojlanish yo'lida // «Ma'rifat» gazetasi, 2008 yil, 21-may.
4. To'xliyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 yil, 9-bet.

V. Ensiklopediya va lug'atlar

1. O'zbek tilining izohli Lug'ati. 2 tomli. I tom. –M.:Russkiy yazik , 1981.
2. Shukurov O., Boymatova O. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. –T.:Yangi asr avlodi, 2007.

VI. Internet manzillari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.ref.uz>
3. <http://scholar.google.ru>
4. <http://www.assalom.uz>
5. <http://www.book.uz>
6. <http://www.yahoo.uz>